2. Mikroelementlar. Bularga asosan fermentlar, gormonlar va boshqa hayotiy moddalarning bir qismi bo'lgan og'ir metall ionlari kiradi. Organizmda bu elementlar juda oz miqdorda bo'ladi: 0,001 dan 0,000001% gacha; Bunday elementlarga bor, kobalt, mis, molibden, rux, vanadiy, yod, brom va boshqalar kiradi.

### ASOSIY QISM

Inson tanasi 60 % suv, 34% organik va 6% noorganik moddalardan iborat. Suv-barcha tirik organizmlarning asosiy moddasidir. Ko'pgina tirik organizmlarning hujayralarida o'rtacha suv miqdori taxminan 70% ni tashkil qiladi. U ham hujayralar orasida mavjud. Masalan, qon va to'qimalar va hujayralarning suyuqligi asosan suvdur. Organik moddalarning asosiy komponentlaridan uglerod, vodorod, kislorod bo'lib, ularga azot, fosfor va oltingugurt ham kiradi. Inson tanasida 22 xil kimyoviy elementlar mavjud: S, B, Na, Mg, Cl, K, N, Mn, Fe, Cr, Si, Se, Ca, P, Co, Ni, Cu, Zn, Ag, Pb, Mo. So'nggi paytlarda to'qima va hujayralardagi gipotireoz rivojlanishida energiya, kislorodning faol shaklini hosil bo'lishi bilan boradigan patologik jarayonlarni korreksiyalash muammolariga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda qalqonsimon bez yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklarni davolash uchun ijobiy ta'sirga ega dori vositalarini yaratishga va amaliyotga joriy qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda[6, 2021].

Kimyoviy elementlarning biologik roli quyidagicha:

❖ Oltingugurt ba'zi aminokislotalarda va oqsillarda uchraydi. Bu tana massasining taxminan 0,2-0,3% ni tashkil qiladi.

❖ Natriy, kaliy kabi musbat zaryadlangan iondir. Bu tana massasining taxminan 0,1-0,2% ni tashkil etadi. Natriy tufayli osmotik bosim, kislota-ishqor muvozanatini bir darajada ushlab turish mumkin. Natriy va nerv impluslarini yetkazib berish uchun javobgardir va qon, hujayralardagi suv hajmiga nisbatan homeostazni saqlaydi. Natriyning yetishmasligi kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Tanadagi suyuqlik muvozanatini saqlashda ishtirok etadi.

❖ Azot inson tanasidagi yana bir muhim element bo‘lib, umumiy tana vaznining 3% ni tashkil etadi. Oqsillarning qurilish bloklari bo‘lgan aminokislotalarning va nuklein kislotalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

❖ Rux tirik organizmda vitaminlar kabi muhim ahamiyatga ega. 70 kg li odam organizmida ruhning miqdori 1,4-2,3 grammga teng. Ruh organizmda eng ko‘p miqdorda muskullarda, terida, jigarda, sochda va prostata bezida uchraydi, skelet muskullari bu elementga boy[6, 26639]. Ruh yaralarni erta davolashga, shikastlangan joylarni tiklashga olib keladi.

❖ Magniyning barcha elementlar orasida vazifalari kengdir. U suyaklar, tishlarning shakllanishida, safro ajralishida, ichaklarning ishida, asab tizimini barqarorlashtirishda, yurak ish faoliyatini normallashtirish unga bog‘liq. Ushbu element yetishmasa oshqozon-ichak traktiga, safro ajralish jarayonlariga ta’sir qilishi mumkin[3, 176; 6, 26641].

❖ Inson tanasida eng ko‘p miqdorda bo‘lgan element bu-kislorod. U umumiy tana vaznining 65% ini tashkil qiladi. Bundan tashqari, hujayrani nafas olishi uchun kislorod ham muhim ahamiyatga ega.

❖ Uglerod barcha organik birikmalarda mavjud bo‘lgan, miqdor jihatdan ikkinchi o‘rindagi element bo‘lib, tana massasining 18% ini tashkil qiladi. Uglerod hayot uchun muhim element hisoblanadi. Chunki u barcha organik molekulalarning, jumladan uglevodlar, oqsillar va nuklein kislotalarning asosini tashkil qiladi[4, 6].

❖ Inson tanasida eng ko‘p uchraydigan uchinchi element vodoroddir. U umumiy tana vaznining 10 %ini tashkil qiladi. Vodorod suv molekulalarining, shu bilan bir qatorda nuklein kislotalar va lipidlarning muhim tarkibiy qismidir.

❖ Kaltsiy tishlar va suyaklarda topilgan eng muhim element va mushaklarning qisqarishi va asab tolalarda impulslarning uzatilishida muhim rol o‘ynaydi. Uning yetishmasligi oqibatida osteoporoz kabi suyak va tish muammolariga olib kelishi mumkin[3, 156, 5, 2021].

❖ Temir tufayli organizmda oksidlanish jarayoni sodir bo‘ladi. Chunki u sitoxromlarga kiradi. Temirning yetishmasligi o‘sish jarayonining kechikishiga,

tananing zaiflashishiga va eng yomoni anemiya rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bu qizil qon tanachalari sonining kamayishi va qonning kislorodni tashish qobiliyatining pasayishi bilan tavsiflanadi[1, 2043].

❖ Selen kuchli immunitet tizimini ta'minlaydi. Agar bu element yetishmasa, mushaklarning, ayniqsa yurak zaiflashishiga olib keladi. Natijada, o'sish, kamqonlik va suyak shakllanishi bilan bog'liq muammolar kelib chiqadi.

❖ Ftor tish emalining bir qismi hisoblanadi. Agar fluor elementi kam miqdorda bo'lsa, ya'ni yetishmasa unda tish emalining shikastlanishiga va kariyesiga sabab bo'ladi[1, 2044].

Inson organizmidagi elementlar yetarli miqdorda bo'lmasa organizmda o'zgarishlar boshlanadi, misol uchun yod ionini yetishmasa, odamda bo'qoq kasalligi, temir ionini yetishmasa kamqonlik, fosfor va kalsiy yetishmasa suyak kasalligi kabilar kelib chiqadi. Tirik organism uchun zahar bo'lgan juda ko'p sonli elementlar mavjud, masalan, simob, talliy va boshqalar. Ular salbiy biologik ta'sirga ega, ammo ularsiz organism ushlay oladi. Hozirgi vaqtda, deyarli barcha tirik organizmlar ion fenomeni-ionlarning hujayra ichida va tashqarisida notekis taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Masalan, mushak tolalari, yurak, jigar va buyraklar hujayralari ichida hujayradan tashqari tarkibga nisbatan kaliy ionlarining ko'payishi kuzatiladi. Natriy ionlarning konsentratsiyasi, aksincha, hujayra tashqarisida uning ichidagiga qaraganda yuqori. Demak, tirik organizmga kimyoviy elementlarning ta'sir etish doirasi keng.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, inson har qanday oziq-ovqatni iste'mol qilmasin, u uchun foydali mikro va makroelementlar ovqat tarkibidan organizmga o'tib, insonni ma'lum darajada immunitet bilan ta'minlaydi. Ularning muvozanatini tiklash uchun kerakli elementni o'zida mujassam etgan mahsulotlarga ustunlik berib, to'g'ri oziq-ovqatni tanlash, ya'ni to'g'ri ovqatlanish tizimini yo'lga qo'yish kerakdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ваходирова N.B., Babanazarova N.E. //Kimyoviy elementlarning inson hayotidagi roli” Международный научный журнал «Научный импульс» №5 (100), часть 1, Январь, 2023.
2. И.Асқаров, М.К. Ашуралиева. Кимёвий элементлар инсон организмида, “Tafakkur” нашриёти. Тошкент 2012 йил ISBN 978-9943-24-087-2
3. Lech T. Garlicka A. Value of magnesium and calcium in serum and hair of children and adolescents with neurologic diseases. *Przegl. Lek* 2000; 57 (7-8) 378-381.
4. G‘iyosiddinova M. S. qizi, & Saydaxmetova , S. R. (2023). Tirik organizmdagi kimyoviy elementlar va ularning ahamiyati . *Golden brain*, 1(9), 14–19. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/2813>
5. Мамадалиева, Н. И., Мустафакулов, М. А., & Саатов, Т. С. (2021). Влияние фактора нервного роста на показатели антиоксидантной системы в тканях мозга крысы. *Environmental Science*, 723, C.022021.
6. Saydaxmetova, S. R. AG‘. Maxsumov. “Organik kimyo”. O‘quv qo‘llanma. “Ilm ziyo zakovat”-Toshkent: 2020-y. 280 Bet.
7. Shomurotova, S. X., Farmonova, S. B., Kamolova, N. I., & Movlonova, S. A. (2020). Improving the Methodology of Teaching the role of metals in Biochemical Processes using Pedagogical Technologies. *Engineering a Management Test*, 83.

## E.VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONI TAHLILI

**Abdusamatova Nozanin Azim qizi**

Samarqand davlat universiteti

Urgut filiali o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Erkin Vohidov dostonlari, xususan “Ruhlar isyoni” dostoni tahlili haqida fikr yuritilgan. Maqolada doston bosh qahramoni – Nazrul Islom hayot yo‘li, hamda asar syujetidagi ayrim voqaealar qisqacha bayon etib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Doston, she‘riyat, “Ruhlar isyoni”, epigraf.*

### **Kirish:**

Sir emaski, adabiyot kishi ruhiyatini poklovchi, uni qalban matonatga undovchi quroldir. Nafaqat she‘rlar, balki dostonlar ham insonning qalbini, iymonini mustahkamlovchi bir kuch misol. Erkin Vohidov ijodida ana shunday tuyg‘ular o‘zining ustuvorligini hozirga qadar qo‘ldan bermay kelmoqda. Buni biz ijodkorning “Nido”, “Orzu chashmasi”, “Ruhlar isyoni”, “Quyosh maskani”, “Palatkada yozilgan doston” kabi adabiy asarlarda misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Doston o‘zining isyonkor she‘rlari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashga ruhlantirgan otashin bengal shoirining orzu-armonlari, jasorati, fojiviy qismati haqida. „Ruhlar isyoni“garchi Nazrul Islom haqida bo‘lsa-da, unda men shoir hayoti bahonasida o‘zimning umuman shoirlik, insonlik, fidoyilik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma‘nosi, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o‘y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko‘rishga intildim.<sup>[2]</sup>

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bu dostonlarning ahamiyatligi shundaki, ularda o‘z zamonasi va uning ijtimoiy holati haqqoniy, hech qanday bo‘rttirilish va ko‘zbuyamachiliklardan yuqori mohirona qalamga olingan. Albatta bu dostonning o‘qishligini va kitobxonning ilmiy salohiyatini shakllantirishga turtki bermay qo‘ymaydi. Bulardan “Ruhlar isyoni” dostonini bugungi kun renesansi bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, ushbu doston xalqlar va dinlar orasidagi o‘zaro kurash, adovat hissini haqqoniy tarixiy tushuncha va faktlar bilan izohlab, o‘tmish kezlarini ayni haqiqatini o‘zida aks ettirgan mukammal asar hisoblanadi.<sup>1</sup>

Ushbu dostonda Islom hamda Budda diniga sig‘inuvchi kishilarning qarama-qarshi his-tuyg‘ularini ifodalab berganligini ko‘rishimiz mumkin. Dostonning markazida turuvchi asosiy personaj- Nazrul Islom bo‘lib, u asarda pok, hamda insoniy mehr-muruvvat hislariga to‘la, ammo zamonasining achchiq va shafqatsiz qarashlari natijasida jaholatning ummoniga g‘arq qilingan ijodkor, inson sifatida talqin qilinib, xarakter qirralari to‘laqonli ochib, bayon qilingan. Nazrul Islomning murakkab hayot ziddiyatlari ishonarli tarzda aks ettirilib, o‘ziga kironxon fikr-u hayolini jamuljam etadi. Shoir 75 yil umr ko‘rgan bo‘lib, u 35 yoshida aql-hushidan ayrilgan obrazdir. Asar - muqaddima, 5 fasl, hamda nihoyatdan iborat hisoblanadi.

Ibrohim G‘ofurov doston haqida „Menga u ko‘p jihatlardan bugungi o‘zbek she‘riy tafakkurining – lirik tafakkurining cho‘qqisi bo‘lib ko‘rinadi“, deb yozgan<sup>2</sup>. Dostonga epigraf sifatida esa ijodkor” Tug‘ilgansan ozod, mudom ozod bo‘lib qol” jumlasini keltirib o‘tganligi asardagi asosiy personaj xarakteri uyg‘unligi asosida bayon etib o‘tilgan. Dostonda shoir qalbini ezgan tuyg‘u- “ibtidoning dardidir” deb aytib o‘tilgan va aynan shu jumlar orqali ham Nazrul Islomni xalq hayoti, uning turmush tarziga nisbatan befarq bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Koinotda isyonkorlik ruhi hukmronligi, agar Nazrul Islom VII asr avval tug‘ilganida Xusrav Dehlaviy kabi dostonlar bitishini, yarim ming yil avval tavallud bo‘lganida esa, xuddi

---

<sup>1</sup> G‘ulomova, Nazira. *Ona tili va adabiyot*. Toshkent- 2014.

Bobur kabi otashin g‘azallar, ruboiylar bita olishini achchiq alamlar bilan bayon etgan. Garchi asarning bosh qahramoni Nazrul Islom bo‘lsada, bu qahramon orqali adib o‘zing qarashlarini o‘z obraziga ko‘zgu misol tutib, unga fikrlari, his-tuyg‘ularini singdirib o‘tadi.

Doston haqida adib o‘z qarashlarini bildirar ekan:” Nazrul Islom o‘z e‘tiqodi yo‘lida yosh jonini ayamqadi. She’ri bilan, so‘zi bilan’ o‘zi nashr etgan jaridasi bilan hurriyat yo‘lida kurashdi. Lekin tinimsiz tazyiqlar, hibsi qiyanoqlar o‘z ishini qildi. Shoir o‘ttiz beshga yetganda, ayni ijoddan qaynaganda es-hushidan ayrildi.

Xalq o‘z shoirini so‘nggi damgacha e‘zozladi. Uning nuroniy, sokin, behush va beruh vujudini tavof qildi.

“Ruhlar isyoni” Nazrul Islomning ana shu fojiali qismati haqida. Umuman, shoirlik, insoniylik, fidoiylik, erkka tashnaligi haqida” deb yozadi adibning o‘zi asar dastavvalida.<sup>1</sup>

## MUHOKAMA

Asar dastlab “Muqaddima” qismi bilan boshlangan bo‘lib, unda ijodkor asar haqidagi dastlabki umumiy xulosalarini bildirar ekan, dunyoning quvonch-g‘ami bisyorligi, dard-g‘amlari undanda ziyoda ekanligi, dildosh inson o‘z kulfatini yaqin insoniga barilla to‘ka olishini, ammo yolg‘iz bo‘lgan kishi o‘z g‘amini aritmoqqa kishi yo‘qligi haqida arz qiladi.

Asarning keying qismi “Abadiyat haqida rivoyat” bobida esa, adib o‘z fikrlarini “roviy” so‘zi asosida shakllantirib, allaqaysi bir zamonda bir karvon falokatga uchraganini, poyoni yoq sahroda bu karvon ichidagi odamlardan faqatgina bir inson tirik qolganligini va u chanqoqdan qiynalib qumli sahro orasida yurganida uning oldidan bir chashma chiqadi va bu chashma sehrli bo‘lib, undan suv ichgan jamiyki jonli mavjudot-u o‘t- g‘iyohlar ham abadiy hayot kechirishga mahkum ekanligi ta’riflangan. Yo‘lovchi ham tashnaligi uchun bu suvdan totmoqchi bo‘lgan on buloq tilga kiradi va unga o‘zining sehrli qudrati haqida bayot etadi. Ayni shu choq

<sup>1</sup> E.Vohidov “Sharqiy qirg‘oq” Toshkent 1981-yil 124 bet.

personajning qarshisida qumda yotgan bosh ko‘rinib, u ham bu suvdan ming yil avval ichib, hozirgacha tirikligi, bu hayotda yashashidan hech qanday ma’no- mazmun va na biron suhbatdosh-tengdosh u bilan qolmaganligidan shikoyat aytib, kajraftordan shikoyat qiladi. Yo‘lovchi esa bu holatni ko‘rib chashma suvidan qonmay, o‘z yo‘lida davom etaveradi.

Bu rivoyatning keltirilishidan asosiy sabab esa, odamzot bu hayotga kelgan onda har kuniga shukr qilmog‘i, faqat bugunini yoki o‘tmishi haqida emas, kelajak umri uchun ham harakatda bo‘lmog‘i va o‘ziga berilgan umrdan qanoat hosil qilib yashamog‘i lozimligini ta’kidlab o‘tadi. Baxt tushunchasi ham ayan mana shu yashayotgan umrning mazmunlilik bilan bog‘liqligini aytib o‘tadi. Darhaqiqat, Naqshbandiy aytganidek: “ Odamlar aytadi: Falonchi odam baxtli yashaydi. Aslida esa o‘z qismatiga rozi bo‘lgan kishigina haqiqiy baxtlidir” Zero, adib odamzotning mangu hayotga havas qilmasligi tushunchasini o‘z qahramoni va u boshidan o‘tkazgan sujet bilan gavdalantirib tasvirlashi kitobxon ongida bu qarashlarning shakllanishiga turtki berib o‘tadi.

Asar davom etar, shoir navbatdagi bo‘limiga “Shoir qalbi” deya nom beradi. Ushu sarlavha ostida E.Vohidov Nazrul Islom hayotini avval boshidan yoritib boradi:

Nazrul Islom

Bu dunyoga

Shoir bo‘lib tug‘ildi.

Ilhom otli pok ziyoga

Go‘dak qalbi yo‘g‘irildi- deya Nazrul Islomning hayot yo‘li haqida hikoya qiladi.

Hind bilan musulmon orasidagi nizolardan o‘z qahramoning qalbi o‘rtaganligini hikoya qilar ekan, u bu asari orqali tarixga ham o‘z nigohini tashlab o‘tadi. Zero, bu davrda hind hamda musulmon nizolari alanga olganligini hamda bu jarayonda bevosida ushbu davrdagi hind diyorini mustamlakaga aylantirgan inglizlarning qo‘li borligi tarixan ma’lum tushuncha. Ijodkor mana shu tarixiy jarayonni shunday o‘z xolicha emas, balki jamiyatdagi kishilar taqdiriga bog‘lab, unda tarixiy haqiqatni yo‘qotmagan holda, badiiy tasvirlab berganligi dostonnavisning yuksak badiiy mahoratining



namunsi deya barilla ayta olamiz. Zotan, “Adabiyot hayot ko‘zgusi, lekin uning ayan qog‘ozga tushirilgan nusxasi emas”.

Asarning eng kulminatsion nuqtasi esa “Jaholat to‘g‘risida rivoyat” bobida jamlangan bo‘lib, unda jaholatli zamonda begunoh qurbon bo‘lgan doniishmand tabib haqida so‘z boradi. Bu donishmand kun bo‘yi giyoh to‘plab, odamlarga shifo ulashishi va bundan odamlar ham hayrat bilan uni dohiy darajasiga ko‘tarib, ihlos quyishganligi yoritilgan. Tabib tibbiyotga bora-bora chuqur bog‘lanib, hatto bir kuni jamiyat uchunhali notanish bo‘lgan so‘qirlik dardiga shifo ulashadi va Nishtar bilan ko‘rning ko‘zlariga shifo bag‘ishlaydi. Ammo qora xalq buni Xudo ishiga isyon deya, tabibni sazoyi qiladilar va uni gulxanda yoqishga ahd qilishadi. Kimlardir savob uchun xas-xashak, kimlardir o‘tin tashlaydi. Hattoki, davo topgan bemorning o‘zi ham poxol ko‘tarib, uning poyi sari tashlaydi. Bemor uning bu ishidan afsusdaligi hamda unga nuridiyda bag‘ishlagani uchun unga bo‘lgan nafratini ro‘yi-rost bayon qiladi. Donishmand uning bu so‘zlarini eshitib undan odam shifo topib, olam shifo topolmaganligidan achchiq faryod ila o‘kinadi va shoir gulxanda kul qilinadi. Lekin, u yongan chog‘da xalq ko‘zidan yosh tomib, ayblarini tushunadi va yilla o‘tib donishmandning nurli haykalini o‘rnatadilar.

“Tutqunlik”da qismida esa, Nazrul Islomning qamoqxona ichidagi achchiq hayoti ila davom etadi. Bunda shoir Rudakiyning adolatni ta‘ma qilib ko‘zlariga mil tortilganligi, Firdavsiyning olamga Zolni tanitib, o‘zi tahqirga qolganligi-yu Boburning yoshlik chog‘idan unga shohlik martabasi berilib, unga qilingan fisq-u fasod qilinganlinini ko‘z oldiga keltiradi va Nazeul Islomning hayotdan zada bo‘ganligi, hamda uning ruhini sharpalar olib ketib, qamoq ichida kishanlangan yo‘lg‘iz jismi qolganligi uni olomon ruhsiz tanini halos qila olganligi bilan asar tugallanadi. Bu qismga monand qilib aynan Bobuqning “Tole yo‘qki jonimga balolig‘ bo‘Ldi g‘azali keltirib o‘tilganligi Bobur hayoti haqida qisqacha material vazifasini o‘taydi.

Asar haqida shuni aytish mumkinki, doston o‘zida shoirlikning asl ma‘vosini, uning tub negizini, aynan shoirlik- fidoiylik ekanligini ta‘riflaydi. Shavkat Rahmon

aytganidek: “Shoirlik-jasorat so‘zining tarjimasidir” va ayni bu jasorat tushunchasi Nazrul Islom ruhiyatida hukmronligi asar davomida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu asarda aynan Nazrul Islom hayotini yoritish emas, bashariyatning uy-xayollariga, yashash tarziga ko‘zgu tutish hisoblanadi. Bu doston orqali adib o‘zining tushunchalarini barilla- hech kim va hech vaqodan qo‘rqmay hayqiriq bilan kuylay olgan. Erkin vohidov ana shunday metin jasorat egasi edi.

## **XULOSA**

Bugungi kunda yoshlarning adabiy asarlar bilan hamohang holda ta’lim olishi muhim jarayon hisoblanadi va bunday masalada badiiy adabiyotning o‘rni beqiyos. Erkin Vohidov asarlari esa nafaqat o‘qishliligi va saviya ko‘lamining kengligi, boz ustiga didaktik jihatdan ham o‘z qadr-qimmatiga ega asarlar hisoblanadi. Adibning yuqorida keltirilgan doston tahlili misolida esa aynan mana shu jihatlar o‘tkir namouon bo‘la boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Bobur Karimov “Erkin Vohidov- ko‘ngil mulkini taroj aylagan qalb egasi”
2. Erkin Vohidov “Dil tubiga cho‘kkan lahzalar. “Sharq” nashriyoti Toshkent 2013.
- 3.E. Vohidov “Ruhlar isyoni” “Adabiyot va san’at nashriyoti” Toshkent 2014.
4. E.Vohidov “Sharqiy qirg‘oq” Toshkent 1981. 124 bet.

## ANALYSIS OF INVESTMENT CHARACTERISTICS OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP PROJECTS

**Djurayev Xolmurod Akramovich**

Student of Project Management master's degree at the  
Graduate School of Business and Entrepreneurship

**Abstract:** *In this article, the problems, advantages and disadvantages of the financing of public-private partnership projects are widely covered. The economic nature and importance of public and private sector cooperation in financing investment projects, the methods and main forms of project financing in the context of public-private partnership, and the legal basis of public and private sector cooperation in financing investment projects are widely covered in the article. Below, the main directions of development of public and private sector cooperation in the financing of investment projects, the prospects of using foreign experience in our country in the development of methods of financing projects in the context of public-private partnership are fully revealed.*

**Key words:** *public-private partnership, project, financing, private sector, non-profit partner, investment, private capital, credit.*

### **Introduction**

A public-private partnership is a long-term agreement between public and private sector institutions. Typically, this involves private capital funding public projects and services upfront, then collecting revenue from taxpayers and users to generate profits over the course of the public-private partnership agreement. Public-private partnerships have been implemented in many countries and are mainly used in infrastructure projects. Although they are not required, public-private partnerships have been used to build, equip, operate, and maintain schools, hospitals, transportation systems, and

water and sanitation systems. Cooperation between private entities, corporations, and governments has existed since the emergence of independent nations, particularly for the purposes of tax collection and colonization. The modern "public-private partnership" appeared around the end of the 20th century. They were aimed at increasing the participation of the private sector in public administration. They have been seen by governments around the world as a way to finance new or refurbished public sector assets off their balance sheets. Although public-private partnership funding comes from the private sector, these projects are always paid for by taxes or service users, or a combination of both. Public-private partnerships are structurally more expensive than publicly funded projects because the private sector's borrowing costs are high, resulting in users or taxpayers footing the bill for disproportionately high interest costs. Public-private partnerships also have high transaction costs. Public-private partnerships are controversial as financing instruments, mainly due to the fact that the public return on investment is lower than the private financier's return. Public-private partnerships are closely related to concepts such as privatization and contracting out public services. Secrecy surrounding their financial details complicates the process of assessing the success of public-private partnerships. Proponents of public-private partnerships emphasize risk sharing and foster innovation, while critics decry their high costs and accountability issues. For example, evidence of the performance of public-private partnerships in terms of value for money and effectiveness is mixed and often non-existent. Public-private partnerships in infrastructure are typically financed on a project basis (as opposed to corporate financing). This involves financing where lenders look to the cash flows of the investment for repayment, with neither equity sponsors nor the public sector turning to cover any shortfall. This arrangement reduces/insulates the financial risk of investors with several advantages; more careful examination of the project, analysis of risks leading to changes in the project structure, reduction of risk and more correct distribution of risks between parties.

## Methods

A public-private partnership is defined as an agreement between a public sector institution and a private entity, where the private party performs a function normally provided by the public sector and uses public property under the terms of the public-private partnership agreement. Most of the project risk (technical, financial and operational) is transferred to a private entity. The public sector pays for the full range of services, including new infrastructure, maintenance and facilities management, through monthly or annual fees. In a traditional government project, the public sector pays the capital and operating costs and bears the risk of cost overruns and late deliveries. It is important to understand that the processes and structures used in project financing are dynamic and continue to evolve. Public-private partnership projects vary significantly in terms of duration and structure. The purpose of using project finance to raise capital is to create a structure that is bankable (attractive to investors) and to limit stakeholder risk and shift some of the risk to those who can better manage it. In project financing, an independent legal vehicle (SPV) is created to attract the necessary funds for the project. Payment of principal, interest, dividends, and operating expenses will be made from project revenues and assets. Investors, both debt and equity, require certain key legal, regulatory and economic conditions throughout the life of the project. The revenues of the public-private partnership project are obtained from the fees (tariffs) collected from the government and service users. In some projects, the private sector provider also pays a concession fee to the government or other authority in exchange for access to government projects, such as a concession fee based on service usage or net revenue, giving the government a vested interest in the project's success. In such cases, the interests of the state can be compared with the interests of the investor. As budgets become increasingly constrained and unable to generate additional revenue, many governments have turned to private sector partnerships. Such contractual arrangements are usually related to quality improvement, improved service delivery, cost savings and reduced financing costs. Typically, a public-private partnership is a partnership between one or more government agencies and one or more

private sector or non-profit partners to support or finance, design, build, operate and/or maintain public services. is conceptualized as a contractual agreement concluded for the purpose of showing. a specific project for public benefit. These types of partnerships are typically designed with the implicit and explicit goal of leveraging additional funding resources and expertise that might not otherwise be available for government purposes through traditional procurement practices. Public-private partnership implies a synergistic and mutually beneficial relationship between direct or indirect partners. In other words, partnership (based on trust and common interests) as a contractual arrangement provides greater efficiency and improved results than a simple contractual arrangement – as if the sum is greater than its parts. This is obviously a strong assumption that can easily be questioned on the basis of wishful thinking and a bit of naivety. Yet this is the underlying, if often unspoken, assumption behind many of the benefits associated with public-private partnerships. A public-private partnership without long-term mutual commitment beyond the terms of the contract is a contract. A key motivation for governments considering public-private partnerships is the opportunity to attract new sources of funding to fund public infrastructure and service needs. There are a number of financing mechanisms for infrastructure projects, particularly public-private partnership projects.

- Funding by the state
- Corporate or balance sheet finance
- Project financing

Public financing means that the government may choose to finance some or all of the capital investment in the project and turn to the private sector for expertise and efficiency. This typically occurs in a design-build-operate project, where the operator is paid a lump sum for the completed construction phases and then receives an operating fee to cover the operation and maintenance of the project. Another example is when a government chooses to carry out the construction work for a project through traditional procurement and then engages a private operator to operate and maintain or maintain the facilities. There is a growing recognition that there are certain aspects or

risks in a project that the government may find easier or more reasonable to accept. This is discussed in the section on public support for financing public-private partnerships. A private operator may accept part of the capital investment financing for a project and decide to finance the project through corporate financing - this involves financing the project based on the private operator's balance sheet. than the project itself. This is a mechanism typically used in lower-cost projects where the cost of financing is not significant enough to warrant a project financing mechanism, or the operator is so large that it chooses to finance the project from its own balance sheet. The benefit of corporate finance is that the cost of financing is the same as the cost of financing the private operator itself, and therefore it is usually lower than the cost of financing the project. In addition, it is less complicated than project financing. However, there is an opportunity cost to corporate financing, as a company can only raise a limited amount of financing relative to its equity (debt-to-equity ratio), and the more it invests in a single project, the less likely it is to finance it. . or invest in other projects. Project Financing One of the most common and often the most effective methods of financing public-private partnership projects is "project financing," also known as "constrained resource" or "resource-free" financing. Project financing is usually in the form of a limited recourse loan to a specially created project vehicle with the right to construct and operate the project. It is usually used in the context of new construction or large-scale renovations, and therefore does not have an existing business in the SPV. The SPV will depend on revenue streams from contractual agreements and end-user tariffs, which will only kick in once construction is complete and the project is operational. Therefore, it is a risky venture and before they agree to finance a project, lenders will want to carefully consider the potential viability of the project and whether the allocation of project risk will adequately protect the project company. This is commonly known as a project's "bankability" check.

Results If we consider investors in public-private partnership projects in developing countries, the highest ranks are:

-Commercial banks (domestic/international) Commercial banks are important investors in infrastructure projects, particularly through senior loans and collateral products such as performance guarantees and letters of credit. The complexity and duration of project-financed projects often means that local banks in developing countries lack the technical capacity or willingness to enter into these projects, and where they are junior members of the syndication.

-Capital markets/ bondholders (domestic/international) Bond financing is suitable for project financing because it has a longer maturity than commercial loans. However, there is less flexibility in lending. Given that many institutional investors can only invest in investment-grade products, it may be easier for an infrastructure fund to obtain financing through the capital markets rather than an individual project.

-Equity Funds Private equity funds (often called "infrastructure funds") can play an important role in project mezzanine financing, taking on more risk than traditional lenders but less than sponsors.

An equity fund is a collective investment scheme that invests in stocks. Collective investment schemes are a way for investors to invest with other investors to take advantage of the inherent advantages of working as part of a group. These benefits include:

- hiring a professional investment manager who theoretically offers good returns and/or risk management prospects

- benefit from economies of scale - sharing costs among others

is more diversified than is possible for most individual investors, which, in theory, reduces risk.

## **Discussion**

Public-private partnerships enable the completion of large public projects, such as roads, bridges, or hospitals, with private funds. This partnership works best when private sector technology and innovation are combined with public sector incentives to complete work on time and on budget. Risks for private enterprise include cost



overruns, technical defects and failure to meet quality standards, while the user fees agreed for public partners may not be supported by demand, for example for a toll road or bridge. Despite its advantages, public-private partnerships often blur the lines between legitimate public objectives and private profit-making activities, and the self-dealing and leasing that can occur. is criticized for exploiting the public due to receiving.

#### Advantages and disadvantages of public-private partnership

Partnerships between private companies and governments provide advantages for both parties. Private sector technologies and innovations, for example, help improve the operational efficiency of public service delivery. The public sector, in turn, encourages the private sector to deliver projects on time and within budget. In addition, creating economic diversification will increase the country's competitiveness in strengthening its infrastructure base and developing related construction, equipment, support services and other enterprises.

A private partner may face particular risks when entering into a public-private partnership. Physical infrastructure, such as roads or railways, includes risks associated with construction. If the product is not delivered on time, costs exceed the estimate, or there are technical defects, the private partner usually bears the burden. In addition, the private partner faces an existence risk if it fails to provide the promised service. A company may not meet safety or other relevant quality standards, such as in the management of a prison, hospital or school. Demand risk occurs when there are fewer users than expected for a service or infrastructure, such as toll roads, bridges or tunnels. However, if the public partner agrees to pay the minimum fee regardless of demand, this risk may be transferred to the public partner.

Public-private partnerships also pose risks to the general public and taxpayers. The cooperation of private operators with the state can exempt them from responsibility for public service users cutting too many corners, providing poor service or even violating citizens' civil or constitutional rights. At the same time, the private partner can use the position to increase duties, tariffs and fees for captive consumers who may

be forced by law or geographic natural monopoly to pay for their services. Finally, as in any situation where ownership and decision-making power are separated, public-private partnerships can create complex principal-agent problems. This can facilitate corrupt deals, payments to political cronies, and rent-seeking activities, undermining the connection between the private parties who make important project decisions, who benefit, and accountability to taxpayers.

### **Conclusion**

Public-private partnership is a special type of contract, according to which the public partner (state entity) transfers part of its obligations to the private partner under a long-term contract, in which the rights and obligations of each party is set. period, as well as mechanisms to restore financial balance in the event of unforeseen events or non-compliance by the parties. Public-private partnerships are an important tool for infrastructure development and therefore economic development. They are used in infrastructure such as roads, airports, ports, energy, water and solid waste, and usually involve investment, operation and maintenance. Public-private partnerships are also used in social infrastructure such as health and education, e.g. construction and maintenance of hospital or school facilities, but may also include clinical or educational services in whole or in part. There is potential for public-private partnerships in any sector.

## References

1. Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции/ Пер.с англ. - М.: Инфра-М, 2010. – С. 102.
2. Байхонов Б.Т., Бустонов М.М., Махмудов М.Ф. Инвестиция лойиҳалари таҳлили (Дарслик). – Наманган: НамМТИ, 2021. – Б. 19-20.
3. Узоқов А., Носиров Э., Саидов Р., Султанов М. Инвестиция лойиҳаларини молиялаштириш ва уларнинг мониторинги (Ўқув қўлланма). - Тошкент: Иқтисод-молия, 2012. – Б. 75.
4. Жураев А.С., Хўжамқулов Д.Ю., Маматов Б.С. Инвестиция лойиҳалари таҳлили (Ўқув қўлланма). - Тошкент: Шарқ, 2013. – Б. 147.
5. Астанакулов О. Инвестиция фаолиятини бошқаришнинг асосий тамойиллари ва баҳолаш хусусиятлари// Ж. Жамият ва инновациялар. – Тошкент: № 5, 2022. Б. 13-23.
6. <https://www.investopedia.com/terms/p/public-private-partnerships.asp>
7. <https://www.icao.int/sustainability/pages/im-ppp.aspx>

**MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOTIDA BO‘LAJAK  
TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna**

Nizomiy nomidagi TDPU

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

**Maxmudova Diyora Akmalovna**

Nizomiy nomidagi TDPU

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

**Ergasheva Ba’rno Ziyovitdin qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning malakaviy o‘quv amaliyotida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining ahamiyati haqida yoritilgan. Bo‘lajak tarbiyachilarning o‘z ustida izlanishi, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarli bilim ko‘nikmalarni, kasbiy mahoratini oshirishi hamda o‘z faoliyati jarayonida kreativ bilimlarni oshirish, kreativlikning mohiyati, tarbiyachi pedagoglarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatga kreativ yondashuvi, kreativ o‘qitishning metod va turli usullari haqida bayon etilgan.*

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье освещается значение методики развития профессиональных компетенций будущих воспитателей в профессиональной образовательной практике. В нем рассказывается о поиске будущих педагогов над собой, о том, как адекватные знания по специальности повышают навыки, профессионализм, а также повышают креативные знания в процессе своей деятельности, о сущности креативности, о креативном подходе педагогов-*

*педагогов к учебно-воспитательной деятельности, о методах и различных методах креативного обучения.*

### **ANNOTATION**

*This article covers the importance of the methodology for the development of professional competencies in the qualification training practice of future educators. The search for future educators on their own, the improvement of sufficient cognitive skills, professional skills in their specialty, as well as the improvement of creative knowledge in the process of their activities, the essence of creativism, the creative approach of educational educators to educational activities, methods and various methods of creative teaching are described.*

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichida maktabgacha ta‘lim pedagoglarining salohiyatini yanada yuksaltirish ijodiy va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga mutaxassislarni tayyorlashning huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash sistemasini davom ettirish” yurtimizda ustuvor vazifa etib belgilandi.

Bo‘lajak pedagogining ta‘lim tarbiya berish jarayonidagi o‘rnini qay darajada muhimli uning malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganligida namoyon bo‘ladi. Kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganligi fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasida namoyon bo‘ladi. Ta‘lim sohasiga qo‘yiladigan talablar orasida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirish uchun qator chora- tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talab – eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir.

Shunday ekan, maktabgacha ta‘lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta‘lim tashkiloti mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganligidir.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bolalarga ta’lim-tarbiya berish sifati uchun jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, kasbiy vazifalariga mas’uliyatli yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi pedagog hamkasblarini o‘shishiga yordam beradi.

Demak, bolajak tarbiyachi avvalo, bilimli bo‘lishi, o‘zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo‘lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak.

Bo‘lajak tarbiyachida quyidagi xususiyatlar uning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim:

- O‘z kasbini sevishi va chuqur puxta bilimga ega bo‘lishi;
- O‘z ustida tinimsiz ishlashi, yangiliklarni tez o‘zlashtirishi;
- Tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olishi;
- Bolalarni yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil eta olishi;
- Yuksak pedagogic mahorat va kommunikativ layoqatga ega bo‘lishi;
- Pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirishi;
- Bolalarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak

Malakaviy amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogic mahoratlarini oshirish ustida ishlashi, izlanishi lozim. Bu

esa o'z navbatida bo'lajak tarbiyachidan pedagogic, psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi.

Malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik mahorat quyidagi asosiy komponentlarni o'zlashtirishni talab etadi:

- Pedagogik ijod
- Pedagogik texnika
- Pedagogik muomala
- Pedagogik madaniyat
- Pedagogik nazokat
- Pedagogik qobilyat

Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda bo'lajak tarbiyachining kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi.

Malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak pedagoglar innovatsiyalarni o'zlashtirishi, to'g'ri qo'llay olishi, amaliyotga joriy etishi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhimdir.

Bo'lajak tarbiyachining innovatsiya chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar berishi mumkin.

Bular doimiy pedagogik muammo bo'lib kelayotgan: o'quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o'quv materialni hajmini oshirish, o'quv jarayonini jadallashtirish, vaqtni tejash, ko'proq ilg'or metodlardan foydalanish, o'quv-tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g'oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, shaxsni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma'nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi.

Demak bugungi kunda malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik mahoratini oshirishi, innovatsion faoliyatga tayyor bo'lib ta'lim-tarbiya jarayoniga so'ngi yangiliklarni olib kerishi, o'z ustida doimo izlanishda bo'lishi ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. SH.M.Mirziyoyev “Maktabgacha ta’lim tizmi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari” to’g’risidagi PF-5198 son farmoni 30.09.2017yil
2. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” – Toshkent, O‘zPFTTI nashriyoti, 2015-yil.
3. Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2006. 6-son
4. Sadriddinovna, R.B. (2022).Technologies for increasing of students’learning competencies in the course of pedagogical practice. *Confrencea*, 6(6), 226-227.
5. Muratova, M.O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta’lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 13, 111-113.
6. Barno, E. (2023). O‘zbekistonda maktabgacha talim muassasalarining zamonaviy tizimi. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(3), 103-105.
7. Рамозонова, Б.С., & Абдумуминова, Д. (2023, March). Технологии развития учебно-познавательных компетенций студентов в процессе педагогической практики. In *E Global Congress* (No. 3, pp. 1-5).
8. Махмудова, Д.А. (2023). Проблемы цифровой педагогики и развитие цифровой компетентности обучающихся. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(1), 143-147.
9. Ramozonova, B. (2023).Pedagogical-psychological factors of improving the methodology of developing professional competences of future educators during the process of qualified educational practice. *Science and innovation*, 2(B4), 228-230.
10. Yakubova, Z. Z. (2023). Milliy tarbiya asosida bola shaxsini rivojlantirishda oila, maxalla va maktabgacha ta’lim tashkilotlar hamkorligi. *golden brain*, 1(15), 141-147.
11. Sadriddinovna, R.B. (2022). Fundamentals of development of students’learning competencies in the course of pedagogical practice. *Thematics Journal of Education*, 7(4).
12. Sadriddinovna, R.B. (2022, October). Significance of developing students’learning competencies in the practice. In *Archive of Conferences* (pp. 35-37).



## GRUNT SUVINING EKOLOGIYAGA SALBIY TA'SIRI

**Bekzod Umarov Baxtiyorjon o'g'li**

And QXAI assistenti

**Shamshidinova Mushtariy Pattojon qizi**

And QXAI talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yer yuzasi grunt suvlarining ekologik holati, u suvlarni tozalab ichimlik va sug'orish maqsadida foydalanish bo'yicha qilinishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha ilmiy ma'lumotlar berilgan

**Kalit so'zlar:** grunt suvlari, yer po'sti, ifloslangan suvlar, g'ovak jinslar, kasallik tarqatuvchi bakteriyalar, mexanik tarkib, diareya, filtrlash

**Аннотация:** В данной статье представлена научная информация об экологическом состоянии подземных вод на поверхности земли, о работах, которые следует провести по их очистке и использованию для питьевых и ирригационных целей.

**Ключевые слова:** грунтовые воды, корка, загрязненная вода, пористые породы, болезнетворные бактерии, механический состав, диарея, фильтрация.

**Annotation:** This article provides scientific information on the ecological status of ground water on the surface of the earth, the work that should be done on cleaning it and using it for drinking and irrigation purposes.

**Key words:** ground water, crust, polluted water, porous rocks, disease-spreading bacteria, mechanical composition, diarrhea, filtration.

## Kirish

Yer po‘stining yuza qismidagi g‘ovak jinslar orasida joylashgan suvlar grunt suvlari deyiladi. Grunt suvlari yer yuzasida joylashgan suvlardan katta maydonlarda tarqalgan bo‘lib, suv o‘tkazmaydigan qatlam ustida joylashganligi bilan farq qiladi.

Grunt suvlari ham yer yuzasidagi suvlar kabi atmosfera yog‘inlari va yer ustki suvlaridan hosil bo‘ladi. Yer po‘stining yuza qismidagi g‘ovak jinslar orasida joylashgan suvlar grunt suvlari deyiladi. Grunt suvlari yer yuzasida joylashgan suvlardan katta maydonlarda tarqalgan bo‘lib, suv o‘tkazmaydigan qatlam ustida joylashganligi bilan farq qiladi. Grunt suvlari ham yer yuzasidagi suvlar kabi atmosfera yog‘inlari va yer ustki suvlaridan hosil bo‘ladi. Grunt suvi tarkibida juda ko‘p miqdorda tuz mavjud. Jumladan, kalsiy gidrokorbanat ( $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ ), magniy gidrokorbanat ( $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$ ), kalsiy sulfat, magniy sulfat, kalsiy xlorid, magniy xlorid kabi tuzlar. Bu tuzlar esa tabiatga ham o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazadi. Grunt suvi tuproq unumdorligini pasaytiradi. Grunt suvi bilan muntazam sug‘orilgan tuproq qattiq, sho‘r bosgan bo‘lib, u yerda yashil o‘simliklar unishi qiyin bo‘ladi. Shu sababli tuproq unumdorligi pasayadi. Keling uni misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

## Grunt suvida sug‘orilgan yerlar



### Oqava suvdan sug'orilgan yerlar



Atrofimizni rang-barang olamsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonlarga o'simliklarning ta'siri juda katta. Shuning uchun ham ularning o'sishi uchun qulay sharoit bo'lishi lozim. Ekologik muammo bo'lib qolayotgan grunt suvi, o'simliklarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. O'simliklar tuproqda o'sganligi sababli, tuproq ham shu suvdan muntazam sug'orilgan bo'lsa, o'simlik rivojlanishi qiyin kechadi. Atrofimizni rang-barang olamsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insonlarga o'simliklarning ta'siri juda katta. Shuning uchun ham ularning o'sishi uchun qulay sharoit bo'lishi lozim. Ekologik muammo bo'lib qolayotgan grunt suvi, o'simliklarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. O'simliklar tuproqda o'sganligi sababli, tuproq ham shu suvdan muntazam sug'orilgan bo'lsa, o'simlik rivojlanishi qiyin kechadi. Yashil o't-o'simliklar tabiatga va ekologiyaga juda katta foydasi bor. Chunki ular fotosintez jarayonini amalga oshirib, havoni kislorod bilan boyitadi.



Grunt suvi tozalanmaganligi sababli inson va hayvon organizmiga salbiy ta'siri bor. Dunyoda har yili 3 milliondan ortiq insonlar ifloslangan suv tufayli vafot etadi. Ko'pincha ifloslangan suvdan kelib chiqqan diareya kasalliklari besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining asosiy sabablaridan biri bo'lib, har yili taxminan 525000 o'limga olib keladi. Noto'g'ri sanitariya infratuzilmalari va gigiena amaliyoti ko'plab mahalliy suv manabalarini ifloslantiradi hamda suv orqali yuqadigan kasalliklarning aksariyati ifloslangan suvni iste'mol qilish natijasida yuzaga keladi..Har yili bolalarda 1,7 milliard diareya kasalligi qayd etiladi.



Tabiatimizni asrab qolish o'z qo'limizda. Ekologik muammolar juda ko'p. Ulardan eng asosiysi hayot manbai bo'lgan suvdur. Statistika ma'lumotlariga qaraganda 2050-yilga borib yer yuzida suv tanqisligidan 5 mlrd kishi aziyat chekishi mumkin. Mana birgina grunt suvi insonga ham, hayvonga ham, o'simlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqdik. Buning oldini olish uchun chekka nuqtalarga toza ichimlik suvini yetkazib berishdir. Atrof-muhit ekologiyasiga hamma birday javobgar. Tabiat qancha toza bo'lsa, salomatligimiz ham shuncha yaxshi bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino aytganidek: „Agar chang va g'ubor bo'lmasa, odam ming yil yashashi mumkin edi“. Insonlar ham grunt suvlaridan iste'mol qilmaslik uchun suvni isrof qilmaslik kerak. Chunki suv obi-hayot. Go'zal va betakror tabiatimizni betakror insonlar bilan birga asrab qolaylik!

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alixonov.B.B O‘zbekiston Respublikasida atrof muhit holoti va tabiiy resurslardan foydalanish to‘g‘risida milliy ma’ruza T.2008 Y.
2. P.Gulyamov, M.Avezov, N.Saidova TOSHKENT «MITTIYULDUZ» 2020 5-geografiya darsligi

## AUDIOVIZUAL TARJIMA QIYINCHILIKLARI: HUJJATLI FILMLAR MISOLIDA

**Norbekova Farangiza Shuhrat qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti,

[farangiza-norbekova@mail.ru](mailto:farangiza-norbekova@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada hujjatli audiovizual mahsulotlarni tarjima qilishning turli yondashuvlari haqida to'liq ma'lumot berilgan. Onlayn platformalarda mavjud bo'lgan hujjatli filmlarning ko'pligi ularni turli tillarga tarjima qilishga talabning oshishiga sabab bo'lmoqda, chunki audiovizual kontentni onlayn ko'rishning zamonaviy an'analari turli til tanlash va tarjimani taqdim etish usullarini talab qiladi.

Hujjatli filmlar alohida filmlar guruhini o'z ichiga oladi. Batafsil tasniflashning har bir bandining o'ziga xosligi ushbu mahsulotlarni tarjima qilish jarayoniga individual yondashuvni talab qiladi. Film terminologiyasi ham alohida e'tibor talab qiladi, chunki u hujjatli asarlar tarjimasining asosiy muammolaridan biridir. Maqolada ovozli tarjima uchun zarur bo'lgan talablar, hujjatli kino san'atining o'ziga xos xususiyatlari va audiovizual matn turlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Audiovizual tarjima, hujjatli filmlar, janr, uslub, audiovizual ishlab chiqarish tahlili, subtitrlash, ovozli, audio tavsif, audio kirish, intervyu, hujjatli filmda terminlar.

**Abstract:** The article presents a comprehensive overview of different approaches to translating documentary audiovisual productions. The abundance of documentary films available at online platforms lead to a higher demand for their translation into different languages as the modern tradition in viewing audiovisual content online requires a variety of language choice and modes of translation presentation (subtitling, voice-over, accessibility means for people with auditory and visual

challenges). Documentary productions present a separate group of films that can be further classified according to their production methods and the presentation styles. The specificity of each item of the detailed classification calls for an individualized approach to handling the process of translating these productions. Film terminology

*also requires special attention as it is one of the basic challenges of documentary productions translation.*

**Keywords:** *Audiovisual translation, documentaries, genre, style, audiovisual production analysis, subtitling, voice, audio description, audio access, interview method, terminology in documentary films.*

## KIRISH

Turli janrlarda ko‘plab audiovizual mahsulotlar mavjud, ammo bu maqolada hujjatli filmlar va seriallarga e‘tibor qaratiladi. Hujjatli film - bu kinematografiyaning ob‘ektiv voqelik, haqiqiy voqealar va shaxslarni suratga olishga asoslangan maxsus yo‘nalishi. Hujjatli filmlarni bugun o‘n yil oldingi holatga nisbatan tomoshabin osonlik bilan qabul qilmoqda va qiziqish ham ortmoqda. Internetning rivoji turli onlayn platformalar hujjatli filmlarning katta assortimentini taqdim eta boshladi va bu janr ommalashib bormoqda. Shu o‘rinda, ushbu sohada malakali audiovizual tarjimonlar uchun ham talab o‘sib bormoqda.

Bir paytlar zerikarli va monotondek tuyulgan hujjatli filmlar janri bugun butun dunyo bo‘ylab millionlab tomoshabinlarni o‘ziga tortmoqda. Ushbu turdagi spektakl hozir dramatik badiiy filmdan qolishmaydi. Turli ijodiy va texnologik yondashuvlar, shuningdek, o‘tkir, ba‘zan baxsli mavzular haqidagi qiziqarli hikoyalar yordamida hujjatli filmlar tomoshabinlarni ekranda ko‘rsatilgan voqelik kontekstiga jalb qiladi.

Ammo hujjatli filmlarning ommalashib borayotgani va ularning janrlarining xilma-xilligiga qaramasdan, badiiy bo‘lmagan filmlarning tarjimasi bilan bevosita shug‘ullanuvchi tadqiqotlar ko‘p emas. Audiovizual tarjima nazariyasining mustaqil sohasi sifatida boshqa tarjima nazariyalariga qaraganda kechroq shakllana boshladi. Biroq kinematografiyaning keng tarqalishi va ommaviyligi tufayli tarjimaning bu turiga talab tobora ortib bormoqda. Audio-vizual tarjima hatto professional tarjimonlar uchun ham alohida muammo hisoblanadi, chunki u o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu turdagi tarjimaning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, tomoshabin bir vaqtning o‘zida ikkita kanal - audio va vizual kanallar orqali ma‘lumot

oladi. Shuning uchun audiovizual asar tarjimoniga asar matni, shuningdek audio va video taqdimot bilan ishlash ko'nikmalari kerak.

Rus tadqiqotchisi A.E.Korolkova hujjatli film tarjima qilishda ma'lum bir algoritmgga rioya qilishi kerak deb hisoblaydi. Tarjima jarayonidan tarjimon ushbu bosqichlardan o'tishi kerak:

- Har bir kadrning mazmuni va uning plyonkadagi koordinatalarini aniq ko'rsatgan holda film tavsifini o'qish.

- Film ishlab chiqaruvchini aniqlash.

- Filmning tuzilishi bilan tanishish, shuningdek, film sahnalashtirilganmi, film reportaj yoki arxiv video, audiodan iboratmi yoki yo'qligini aniqlash.

- Hujjatli filmning struktura turlarini ko'rib chiqish.

- Tarjima jarayonida matnni tomoshabin uchun moslashtirish.

- matnda mavjud bo'lgan qadriyatlarni maqsadli tilda so'zlashuvchilarning asosiy qadriyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish (milliy va madaniy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish xatolarga va natijada sifatsiz tarjimaga olib kelishi mumkin).

- Materialni taqdim etish shaklini aniqlash (turli tillardagi iboralar uzunligi sezilarli darajada farq qilishi mumkin). Ushbu bosqichda tarjimon hikoyaning qanday turlari bilan ishlash kerakligini tushunish uchun materialni taqdim etish shaklini aniqlaydi. Film dialoglar, muallif matni, ovozli monolog yoki dialog yoki ichki monologdan iborat bo'lishi mumkin.[1]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Audiovizual tarjimaning ikkita asosiy turi mavjud: interlingual va intralingual. Interlingual tarjima quyidagilarni o'z ichiga oladi: ovozli tarjima uchun tarjima, ikki o'lchovli subtitr uchun tarjima, dublyaj uchun tarjima (qayta ko'rsatish) va to'liq dublyaj uchun tarjima. O'z navbatida, audiovizual tarjimaning intralingual turiga eshitish qobiliyati zaiflar uchun subtitrlar, jonli izohlar, opera va teatrdagi subtitrlar kirishi mumkin. Audio tavsif, vizual kanal orqali uzatiladigan ma'lumotni og'zaki bayon qilish intersemiotik tarjima turiga tegishli. Audiovizual tarjimaning asosiy



maqsadi asarning asl maqsadini saqlab qolish, qahramonlar nutqining uslubi va o'ziga xos xususiyatlarini kuzatishdir.

Audiovizual ishlab chiqarishning har bir janri tarjimaga alohida yondashuvni talab qiladi, chunki ularning har biri og'zaki uslublarning ma'lum o'ziga xosligini (badiiy filmlar, monologlar yoki filmlardagi dialoglarning ko'pligi, hujjatli filmlardagi tavsiflar va boshqalar), o'ziga xos vizual tuzilma va alohida turdagi audio) namoyon qiladi.

Hujjatli filmlarda juda ko'p janrlar mavjud. Hujjatli audiovizual mahsulotlarning xilma-xilligini aks ettiruvchi tasnifga quyidagi turlar kiradi:

xronika, etnografik film (antropologik film), kino insho/kino kundaligi, tergov-surishtiruv, kuzatish, portret, eksperimental hujjatli film, hujjatli animatsiya.

Amerikalik kinoshunos va nazariyotchi E.Nikols hujjatli filmlarning oltita asosiy uslubi borligini ta'kidlaydi [E.Nichols, 2010]:

- poetik (bunday asarlarning maqsadi kayfiyatni yaratish va estetikani yetkazishdir);
- tushuntirish (o'quv va ma'rifiy filmlar);
- ishtirokchi (bu filmlar hujjatli film ijodkorining bevosita ishtiroki bilan tavsiflanadi);
- kuzatuv (bunday filmlarning maqsadi hujjatli rejissyorning aralashuvisiz voqelikni aks ettirishdir.
- aks ettiruvchi (bunday filmlarning asosiy e'tibori hujjatli film muallifi va film muallifi o'rtasidagi munosabatlardir
- ijro etuvchi (bunday filmlarda hujjatli film muallifining shaxsiy tajribasi orqali ijtimoiy-siyosiy yoki tarixiy voqelik dunyoqarash prizmasi ko'rsatiladi).

Hujjatli kino san'atining o'ziga xos xususiyatlaridan biri muayyan voqea yoki hodisani tavsiflovchi terminologiya, voqelik va tushunchalarning ko'pligi bo'lib, bu

ayniqsa aniq tarjimini talab qiladi, shuning uchun terminologik birlikni ta'minlash tarjimaning o'zi ham yuqori sifatni ta'minlaydi.

Ekvivalentlarni tanlashni tizimlashtirish va tarjimada atamalarning birligini ta'minlash uchun tarjimon professional lug'at tuzishi kerak. Tilda bir xil so'zning ma'nosi ko'pincha turli xil so'zlar yoki iboralar orqali yetkazilishi mumkin, ular ma'no jihatidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi hollarda, xususan, sanoat tarjimasida, atamaning o'ziga xos ma'nosidan foydalanish va har qanday o'zgarishlardan qochish ayniqsa muhimdir, chunki noto'g'ri tanlangan atama ma'lumotlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, professional terminologik lug'at yaratish tarjima jarayonining muhim qismidir.

### **METODLAR TAHLILI**

Hujjatli filmlarni tahlil qilishda ushbu maqolada qo'llaniladigan usullar quyidagilardan iborat:

- lingvistik faktlarni tahlil qilishning tavsif usuli (terminologiyani qayta ishlashda);
- tarjimadan oldingi tahlil usuli;
- qiyosiy usul;
- tasodifiy tanlab olish usuli

### **MUHOKAMA**

E. Frankoning fikricha, hujjatli tarjimaga ikki sababga ko'ra yetarlicha e'tibor berilmagan. Birinchi sabab - yaxshi shakllangan adabiy an'ana, shubhasiz, audiovizual tarjima tadqiqotchilarining badiiy filmlarni afzal ko'rishiga ta'sir qilgan. Ikkinchidan, Frankoning fikriga ko'ra, ko'plab tadqiqotchilar hujjatli filmlar tarjimasini an'anaviy ravishda ob'ektiv deb da'vo qiladigan va murakkab adabiy tilga ega bo'lmagan faktlarni tarjima qilishga asoslangan oddiy tarjima turi sifatida qabul qiladilar [E.Franco, 2001: 289].

Hujjatli filmlarni yaratishning ishlab chiqarishdan oldingi va keyingi bosqichlarida ularning ijodkorlari unga mazmunli va zarur deb topadigan ma'no va kontekstlarni qo'shadilar. Shunday qilib, hujjatli filmlar bilan ishlaydigan tarjimon ularga badiiy filmlarga qanday munosabatda bo'lsa, xuddi shunday munosabatda bo'lishi kerak.

Umuman olganda, hujjatli asarlarni tarjima qilish juda uzoq va murakkab jarayon bo'lib, tarjimadan oldin chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Shu munosabat bilan tarjimon tarjima jarayonini osonlashtiradigan va tezlashtiradigan barcha mavjud vositalardan foydalanishi kerak. Hujjatli film janri juda xilma-xil mavzularni qamrab oladi va bu tarjimonni nafaqat mahsulot qamrab olgan mavzularni batafsil o'rganishga, balki turli ixtisoslashgan sohalarning terminologik birliklarini o'rganishga ham undaydi. Bu shuni anglatadiki, odatda ma'lum bir sohaga ixtisoslashmagan tarjimon hujjatli filmni tushunish va uni adekvat tarjima qilish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni topa olishi kerak.

## NATIJALAR

Intervyu - hujjatli filmda ma'lumot berishning eng mashhur usullaridan biri. Film ustida ishlayotganda, uning ijodkorlari odatda guvohlar, voqealar ishtirokchilari yoki film mavzusi bo'yicha o'zlarining ekspert xulosalarini bera oladigan mutaxassislardan ma'lumot to'plashadi. M.Rabiger intervyuni metaforik tarzda "hujjatli kinoning yuragi" deb ta'riflaydi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "intervyu" so'zi nafaqat kamera oldida ma'lumot olish, balki qahramon bilan shaxsiy munosabatlarni saqlab qolishning murakkab qobiliyatini ham anglatadi. Hujjatli filmlardagi intervyularni tarjima qilish alohida ahamiyatga ega, chunki u nafaqat faktlarning to'g'ri uzatilishini, balki suhbatdoshdan olingan boshqa barcha ma'lumotlarni ham ta'minlashi kerak [Rabiger, 2006: 248].

A. Matamala o'zining "Hujjatli filmlarni tarjima qilish: Neandertallardan Supernenigacha" maqolasida matn uzunligini moslashtirish (ovozli izoxroniya), matn va tana tilini sinxronlashtirish (kinetik sinxronizatsiya), matnni sinxronlashtirish va

vizual (harakat sinxronligi), va tushunarli nutqni yaratish uchun tilni o'zgartirish kabi faktorlar muhim jihatlar ekanligini aytib o'tgan[3].

Izoxroniya (ovozli izoxroniya) ovozli tarjima uchun asosiy talabdir. Ovozni lablar sinxronizatsiyasi bilan to'liq dublyaj qilish qiyin bo'lishiga qaramay, asl nusxa va tarjima hali ham taxminan bir xil vaqtni olishi kerak.

Kinetik sinxronizatsiya tarjima qilingan matn va ma'ruzachining ekrandagi tana harakatlari o'rtasidagi yozishmalarni nazarda tutadi. Dinamik sinxronizatsiya tarjima matni va umuman ekranda sodir bo'layotgan narsalar o'rtasidagi yozishmalarni nazarda tutadi. Misol uchun, agar filmda ma'ruzachi ekranda ko'rsatiladigan ba'zi elementlarni navbatma-navbat sanab o'tsa, tarjimon tarjimada bu elementlarning asl ketma-ketligini ham saqlab qolishi kerak.

Subtitrlashda nafaqat og'zaki hikoya, balki og'zaki vizual bayon ham tarjima qilinadi: asosiy sarlavhalar, yo'l belgilari, yo'l belgilari, sarlavhalar va boshqalar tarjimaga kiritiladi.

Ovozli tarjimada dublyaj va subtitrlash bilan solishtirganda nisbatan kam cheklovlar mavjud bo'lgani uchun tarjima boshqa tarjima turidan ko'ra tezroq amalga oshiriladi. Bu ovoz yozish bosqichini tezroq boshlash mumkinligini anglatadi. Tahrirlash bosqichi ham kamroq vaqt oladi. Ovozli tarjimaga qo'yiladigan talablardan ko'rinib turibdiki, bu turdagi tarjimaning ijobiy va salbiy tomonlari ham bor. Ovozli tarjimaning quyidagi afzalliklari qayd etilgan:

- cheklovlarning minimal soni;
- dublyajga qaraganda qisqaroq muddatda bajarilishi mumkin;
- sarflangan xarajatlar nuqtai nazaridan byudjetbop.

Eshitish yoki ko'rish qobiliyati zaif bo'lgan turli maqsadli guruhlar nuqtai nazaridan qaralsa, subtitr va ovozli tarjimaning o'ziga xos kamchiliklari bor. Subtitrning kamchiliklari uning ko'rish qobiliyati zaif odamlar uchun mavjud

emasligidir. Masalan, ko‘zi ojizlar subtitrlil filmni tomosha qilishda muayyan muammolarga duch kelishlari mumkin

Subtitrlardan farqli o‘laroq, ovozli (dublyaj) ularga film tarjimasini eshitish imkoniyatini beradi. Kar va eshitish qobiliyati past odamlar uchun o‘qish ma’lumotni idrok etishning eng yaxshi variantidir, shuning uchun kar va zaif eshituvchilar uchun subtitrlar mos keladi.

Hujjatli audiovizual asarlarni tarjima qilishda e’tiborga olinadigan yana bir muhim jihat - bu asarda qo‘llanilgan atamalarning tarjimasi. Terminlarni tarjima qilishning turli usullari mavjudligiga qaramay, har qanday atama qo‘llanilayotgan sohaga qarab o‘z ma’nosini o‘zgartira oladigan so‘z sifatida qaralishi kerakligini unutmaslik kerak. Ingliz tilida atamalar (boshqa leksik birliklar kabi) ko‘p ma’no bilan tavsiflanadi. Bitta va bir xil atama turli fanlarda turli xil ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Xususan, bu ma’lum kontseptual tizimlar tomonidan shartlangan atamalar turli xil yuqori ixtisoslashgan ma’nolarga ega bo‘lganda, bu tarmoqlararo polisemiya taalluqlidir. Ushbu hodisani omonimiya yoki polisemiya sifatida tavsiflash mumkin.

Jumladan, men tarjima qilgan “Taom haqida afsona va haqiqatlar” teleko‘rsatuvi matnida uchragan ayrim atamalarning o‘zbek tilida ekvivalenti yo‘q. Masalan,

*Enrobed in pesto or rocking a puttanesca original, pasta looks good in everything- Xoh u “pesto” qaylasi bilan tayyorlansin, xoh “puttaneska” qaylasi ila dasturxonga tortilsin, makaron bariga nafislik bag‘ishlayveradi.*

*(tarjima muallifniki)*

Tarjima matnida o‘xshash semantik vazifani bajara oladigan lug‘at birligini tahlil qilish va tanlashda tarjimondan alohida harakat talab etiladi. Yana bir qiyinchilik tarjimon uchun cheklovlarni qo‘llash bo‘ladi. Chunki tanlangan lug‘at birligiga turli xil audiovizual tarjima turlariga (subtitr, ovozli, SDH, audio tavsif, audio kirish) subtitr uchun tanlangan ekvivalent yoki so‘z juda uzun bo‘lishi mumkin. Masalan, koroner - odatda Anglo-Sakson huquqiy oilasida to‘satdan va g‘ayrioddiy sharoitlarda sodir

bo'lgan o'limlarni tekshiradigan amaldor. Ko'pgina huquqiy tizimlarda bu lavozimning ekvivalenti yo'q. Ba'zi mamlakatlarda sud-tibbiy ekspertiza, dastlabki tergov va sud kabi bir qator organlar tomonidan sudlanuvchiga o'xshash vazifalar bajariladi.

Shuning uchun atama ba'zan transliteratsiya orqali tarjima qilinadi, chunki ko'pincha analogni tanlash uning ma'nosiga to'liq mos kelmaydi va atamaning tavsifiy tarjimasida juda ko'p joy oladi yoki yozuvda juda ko'p vaqtni oladi. To'g'ri tuzilgan tarjima lug'ati yangiligi tufayli maqsadli tilda o'xshash bo'lmagan atamalarni manba tilda o'rganish va tavsiflash imkonini beradi. Bundan tashqari, ma'lum bir kontekstdagi terminologik birliklar keng tarqalgan lug'atlarda keltirilganidan butunlay boshqacha ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Lug'at ixtisoslashtirilgan terminologiyani tarjima qilishdagi noaniqliklarni kamaytiradi va foydalaniladigan terminologik birliklarning bir xilligini ta'minlash orqali tarjima sifatini oshiradi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, globallashtirish va xorijiy kino ishlab chiqarishning keng tarqalishi tufayli audiovizual tarjima eng ustuvor ta'lim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Audiovizual tarjima tarjimondan turli ilmiy fanlar va kasblarning ko'nikma, qobiliyatlari va nazariy asoslarini uyg'unlashtirishni talab qiladi. Audiovizual mahsulotlar tarjimasida tarjimaning boshqa turlaridan farqli o'laroq, o'ziga xos idrok etilishi bilan ajralib turadi, chunki tomoshabin ma'lumotni ikki kanal - vizual va akustik kanallar orqali oladi.

Lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida hujjatli film ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki u ancha murakkab tizim bo'lib, uni tushunish uchun nafaqat matnning o'zi, balki undagi tildan tashqari omillarni ham o'rganish kerak. Hujjatli filmlar juda xilma-xil mavzularni qamrab olganligi sababli, ularni tarjima qilish uchun tarjimadan oldin chuqur tahlil qilish kerak. Tarjimon turli mavzularda batafsil

tadqiqotlar olib borishi, turli ixtisoslashgan sohalardagi terminologiyani o'rganishi va kerakli ma'lumotlarni to'liq topa olishi kerak.

Hujjatli asarlarni tarjima qilish murakkab jarayon bo'lib, u turli xil materiallarni qayta ishlash, shuningdek, ma'lum bir film mavzusini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Tarjimon tarjimini ma'lum bir auditoriya uchun to'g'ri moslashtirishi, film mavzusini tushunishi kerak. Hujjatli filmlar zamonaviy madaniyatning muhim elementidir. Hujjatli film janri uni badiiy filmlardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy farqi shundaki, hujjatli filmlar real voqea va faktlarga asoslangan. Shunday ekan, tarjimon janr bilan ishlayotganda ham barcha faktlarning haqiqiyliги va haqqoniyliğini saqlab qolishi kerak. Hujjatli filmlar, shuningdek, badiiy filmlar yillar davomida xronika, kinoesse, kuzatuv, kinoportret va boshqalar kabi turlarga aylandi. Shuni ta'kidlash joizki, hujjatli filmning har bir turi badiiy mahoratning har xil darajasini nazarda tutadi, shuning uchun uning tarjimasiga boshqacha yondashiladi. Hujjatli audiovizual tarjimada atamalarning birligini ta'minlash va mumkin bo'lgan tarjima xatolarining oldini olish uchun lug'atlar zarurdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Злобина О. Н., ВОРОЖЦОВ Г. Ю «ДОКУМЕНТАЛЬНОЕ КИНО В АСПЕКТЕ ПЕРЕВОДА (НА МАТЕРИАЛЕ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ФИЛЬМА «а LIFE in JAPAN» / «ЖИЗНЬ В ЯПОНИИ» Многоязычие в образовательном пространстве 2020, DOI: 10.35634/2500-0748-2020-12-126-134 УДК 811.111'25:791.43(045
2. Elena V. Documentary films translation: approaches and challenges/ Journal for Educators, Teachers and Trainers, Vol. 14
3. Franco, E. Voiced-over television documentaries: Terminological and conceptual issues for their research / E. Franco // Target. International Journal of Translation Studies. – 2001. – Vol. 13. № 2. – 289 – 304 b.

4. Matamala, A. Terminological challenges in the translation of science documentaries: A case-study / A. Matamala // Across Languages and Cultures. – 2010. – Vol. 11. № 2. – 255 – 272 b.
5. Kulej, Maja. Audiovisual Translation of Documentary Feature: Case Study of "She's Beautiful When She's Angry"-2020.
6. Balsam A Mustafa. Film Translation: Subtitling vs. Dubbing.
7. Yunsil Jo. Study on documentary translation for dubbing.
8. Рабигер М. Режиссура документального кино. М.: Изд-во Гуманитарного ин-та телевидения и радиовещания им. М. А. Литовчина, 2006.
9. Nichols, B. Introduction to Documentary, Second Edition. 2nd ed., Indiana University Press, 2010. JSTOR, <http://www.jstor.org/stable/j.ctt16gzjnb>. Accessed 16 Feb. 2023.



## BUGUNGI KUNDA TARIX FANINI O'QITISHNING DOLZARB AHAMIYATGA EGA MASALALARI

**G'anijonova Dilafruz Noiljon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

[Ganijonova1995@gmail.com](mailto:Ganijonova1995@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada yoshlarga tarix fanini o'rganish borasidagi olib borilayotgan islohotlar, O'zbekiston Respublikasida yoshlarning tarixiy savodxonligini oshirish masalalariga ilmiy jihatdan to'xtalib o'tilgan, hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tarix, O'zbekiston, tarixiy savodxonlik, mustaqillik.*

### KEY ISSUES IN HISTORY TEACHING TODAY

### ABSTRACT

*In the article, the ongoing reforms in the study of history for young people, the issues of improving the historical literacy of young people in the Republic of Uzbekistan were scientifically discussed, and conclusions and recommendations were developed.*

**Key words:** *History, Uzbekistan, historical literacy, independence.*

### КЛЮЧЕВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ СЕГОДНЯ

### АННОТАЦИЯ

*В статье научно обсуждены проводимые реформы в изучении истории для молодежи, вопросы повышения исторической грамотности молодежи в Республике Узбекистан, разработаны выводы и рекомендации.*

**Ключевые слова:** *История, Узбекистан, историческая грамотность, независимость.*

## KIRISH

Bugun o‘zining turli xil, rang – barang o‘zgarishlari bilan, dunyo ahlini hayrat va tashvishga solib kelayotgan global muammolar, insoniyatni bir talay sinovlar girdobiga tashlamoqda. Dunyoning qaysi bir mintaqasida tabiiy ofatlar avj olib insoniyat ushbu ofatlarning og‘ir azob va uqubatlarini tortib kelayotgan bo‘lsa, ayrim mintaqalarida esa odam savdosi, ekstremizm va terrorizm, qurol savdosi, narkomaniya, ijtimoiy tengsizlik, gender muammolari avj olayotganligi dunyo hamjamiyatini chuqur o‘yga solmoqda. Binobarin, xalqaro hamjamiyatni, xalqaro tashkilotlarni o‘yga solib kelayotgan bunday zo‘ravonliklarga qarshi kurashishda, ma‘lum bir tashkilotlar yoki gegemon davlatlar emas, balki butun insoniyatni o‘zi o‘zining qadr-qimmati, huquq va erkinligini ta‘minlash uchun kurashishi kerak ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bu esa, biz oldimizga qo‘ygan maqsad, xalqparvar davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidagi islohotlarimizni amalga oshirishimizda bir talay qiyinchiliklarni tug‘dirmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston olimlarining samarali tadqiqotlari natijasida milliy tariximizning ilgari noma‘lum bo‘lgan sahifalari ochildi, tarixiy o‘tmishimizning ko‘p jihatlari kashf etildi. Natijada tarix fan – xalqqa jamiyatning ma‘naviy taraqqiyotiga xizmat qilishdek azaliy vazifasini qayta tikladi. Milliy mafkura va ma‘naviy-axloqiy barkamollikni shakllantirishda tarixiy komponentlarni o‘rni beqiyos. Tarix fanining ta‘limiy va tarbiyaviy vazifasi ham aynan mana shu komponentlarni yoshlarda shakllantirishga xizmat qiladi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga, 2021-2025 – yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ga muvofiq ta‘lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, ta‘limning zamonaviy metodologiyasini yaratish xamda ular asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini oshirishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko‘ra 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Unga ko‘ra uzluksiz ta‘lim

tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, shuningdek bu borada pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirishga katta ahamiyat berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" nomli asarida "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosidan o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", — degan fikri bugungi kunda ta'lim tarbiyaga davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotganidan dalolatdir. Binobarin, mamlakatimizning taraqqiy etishi, rivojlanishi, jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, kelajagining kafolatlari bugungi kundagi yoshlarimizning qay darajada tarixiy bilimdonligi, milliy ongining yuksakligi va tarixiy madaniyatiga bog'liqdir. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarida O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga tabrigida, " ... ayni paytida bugungi kunda oldimizda yanada muhim va dolzarb vazifalar turganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada ilm-fan va ta'lim – tarbiya sohasining moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va domlarning mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini har taraflama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bilan kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi"

Tarixni o'rgatish yoshlarga milliy g'oyani singdirish va ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, hozirgi zamon taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va ziddiyatlari mohiyatini to'g'ri tushunishga tayyorlashning muhim vositasidir. Ushbu masalani yanada takomillashtirish, nafaqat o'sib kelayotgan yoshlarni, balki yurtimizdagi barcha fuqarolarning ham tarixiy qadriyatga ega bo'lishini ta'minlovchi tizimni yaratish maqsadida 23-sentyabri 2020-yildagi O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni qabul qilishdan maqsad, avvalo yoshlar o'rtasida tarixiy ta'lim va tarbiya tizimini yaxshilash, o'quvchi yoshlarni yurtimiz tarixiga hurmat bilan munosabatda bo'lishlariga erishish, yoshlarimizning milliy qadriyatlari va madaniyatini oshirishdan iborat. Tarix o'qitish jarayoni ikki yo'l bilan oshiriladi.

Birinchisi – kuzatish metodidir. Bu metoddan foydalanganda, turli xildagi o'quv-metodik adabiyotlar, o'quvchilarning yozma ishlari, ma'ruzalari, ularning javoblari, o'qitishga berilgan baho va xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o'quvchilarning bilimi va malakalari o'rganiladi. Shunday qilib, kuzatish metodidan foydalanganda, tadqiqotchi tarix o'qitishning mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqmaydi, uni tabiiy kuzatadi va o'rganadi.

Ikkinchisi – tajriba metodi. O'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi xohlaganicha uyushtiradi. Xullas, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy tajribaga o'xshab ketadi. Biroq, o'qituvchi qilgan ijodiyizlanishlarning ilmiy tajribadan farqi, shundaki o'qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xulosalari esa o'z faoliyatining natijasi bo'ladi. Ilmiy tajribada aksariyat o'qituvchilarning ishi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar tadqiq etiladi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asosda rasmiylashtiriladi. Shuning uchun xam, tarix o'qitish jarayonini tadqiq etishdagi kuzatish metodini eksperimental tadqiqotdan farq qila bilish kerak. Tarix o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman psixik faoliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu sababli metodika psixologiya fani bilan chambarchas bog'liqdir. Tarix o'qitish jarayonida ustoz va shogirdlar o'rtasida ma'naviy yaqinlik, sog'lom va estetik kayfiyat vujudga keltirilishi

o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, darsning samaradorligini oshiradi. Tarix fanini o'qitish milliy ongini o'stirishda, ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol shaxsni, yurtini sevib ardoqlaguvchi fuqaroni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab yetishtirishda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, tarix fanini o'qitish talabalar milliy ongini o'stirish, ularni milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik, insoniylik, yuksak ma'naviyat kabi olijanob an'analar ruhida tarbiyalashda bitmas-tuganmas imkoniyatlarga egadir. Demak, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida ta'lim muassasalarining sifati hamda samaradorligini oshirish bugungi kunning davlat siyosati darajasida turgan asosiy masalalardan biridir. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda mustaqil fikrlashga katta e'tibor berilishi – davlatning ustuvor vazifalaridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari/ Nashrga tayyorlovchilar: M. Bekmurodov, Q. Quronboyev, L. Tangiyev. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 70-72.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. I jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017. – B.146.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2018. – B. 24-25.
4. Nematov, O. (2018). Historical and religious monument of muhammad sharif (Mevlanagrekushoh). Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 7(9), 448-452.
5. Odilov, B. A., & Karimov, N. R. (2020). Analysis of Targeted Research in 20-30 Years of the XX Century. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 8887-8893.

6. Дониёров, А. Х., & Каримов, Н. Р. (2018). " КИТАБ АЛ-ХИКМА" И" ХИКМА" В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ ХАКИМА ТИРМИЗИ. In лучшая научная статья 2018 (pp. 48-52).
7. DAVLATOVA, K., & NEMATOV, O. (2021). Tajiks of jizzakh oasis: traditional way of life, customs and traditions and rituals. Journal of Contemporary Issues in Business and Government| Vol, 27(3), 1325.
8. Karimov, N. R. (2019). SOME BRIEF INFORMATION ON AL-SIHAN ALISITTA. Theoretical & Applied Science, (5), 611-620.
9. Karimov, N. R. (2018). Some researches on Abu Isa Tirmidhi in European countries. International Journal of Current Research, 10(12), 76170-76173.
10. Aminovna, S. S., Rustamovich, N. B., & Kizi, S. U. B. (2019). Problems and prospects of vaccination against influenza among risk groups in pregnant women and students'. International scientific review, (LVII), 85-87.
11. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. Bulletin of Gulistan State University, 2021(2), 61-67.
12. Davlatova, K., & Nematov, O. (2021). TRADITIONAL CLOTHES OF JIZZAKH PEOPLE. Theoretical & Applied Science, (5), 366-369.
13. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT "THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR". European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(06), 133-138.
14. Мавлянов, У. Н. (2021). ALI SAFIY AXLOQ QOIDALARIGA AMAL QILISHNING ANAMIYATI HAQIDA. ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ, (1).
15. Davlatova, K., & Nematov, O. (2021, November). TRADITIONAL JEWELERIES AND DECORATIONS. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 26-28).
16. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ В НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. Вестник Российского философского общества, (1-2), 200-209.

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИ ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАРГА  
ЖАЛБ ЭТИШ ОРҚАЛИ ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИ  
ОРАСИДА ОММАВИЙ СПОРТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УЛАРНИНГ  
ТАНА ВАЗНИНИ КАМАЙТИРИШ

**М.Қ.Саидова**

Магистрант Қарши давлат университети

Қарши шаҳар, Ўзбекистон.

**АННОТАЦИЯ.**

*Мақолада давлат фуқаролик хизматчиларинг гимнастик машқлар орқали тана вазнини камайтириши, иш самарадорлигини ошириши ва оммавий спортга жалб этиши бўйича ўтказилган тадқиқот натижасида баён этилади.*

**Калим сўзлар:** оммавий спорт, килокалория, гимнастик машқлар.

*В статье описаны проведенные исследования по снижению массы тела, повышению работоспособности и вовлечению государственных служащих в общественный спорт посредством занятий гимнастикой.*

**Ключевые слова:** массовый спорт, килокалория, гимнастические упражнения.

*The article describes studies conducted on reducing body weight, increasing performance and involving government employees in public sports through gymnastics.*

**Key words:** mass sports, kilocalorie, gymnastic exercise.

Мамлакатимизда соғлом турмуш тарзини тарғиб этиш, аҳолининг барча қатламларини жисмоний тарбия ва оммавий спортга кенг жалб этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу аҳолининг барча қатламларини саломатлиги, кучи ва имкониятларига бўлган ишончини мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этади.

Хусусан, жаҳонда коронавирус пандемиясининг юзага келиши дунё мамлакатлари қатори Ўзбекистонда ҳам аҳолининг соғлиғи, саломатлиги, соғлом ҳаёт кечириш даражаси заиф эканлигини кўрсатди. КОВИД-19 инфекцияси,

аввало, юрак-қон томир ва нафас олиш йўллари ҳамда семизлик (ортиқча вазн) касаллигига чалинган фуқароларимизнинг соғлиғига салбий таъсир кўрсатди. Натижада пандемия кўплаб фуқароларимиз, давлат фуқаролик хизматчиларининг бевақт дунёдан кўз юмишига сабаб бўлди.

Шунингдек, АҚШдаги Майо клиникаси тадқиқотчиларининг ёзишича, кунига тўрт соатдан ортиқ доимий равишда ўтириб ишлаш ҳар қандай сабабга кўра ўлим хавфини 50%га оширади. Бундан ташқари, юрак-қон томир касалликлари хавфи 125%га ошишини аниқлашган.

Шу сабабли, давлат органлари ва ташкилотлари ҳамда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ходимлари ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб этиш ва соғлиғини мустаҳкамлашга қаратилган тадбирларни амалга ошириш юртбошимиз ва ҳукумат олдидаги долзарб вазифалардан бири этиб белгилаб қўйилган.

Президентимизнинг 2020 йил 30 октябрдаги “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, 2021 йил 5 ноябрдаги “Юриш, югуриш, мини-футбол, бадминтон, стритбол ва “Workout” спорт турларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 5282–сонли, “Маҳалла ёшларини оммавий спортга жалб этишни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 201-сонли қаролари ва Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги ҳамда Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ўртасида ўзаро англашув меморандумларининг қабул қилиниши мамлакатимизда жисмоний тарбия ва оммавий спортнинг ривожига муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижроси натижасида барча давлат ташкилотларида спорт тарғиботчиси вазифаси киритилди ва ташкилотларда ходимлар жисмоний машқлар ва спорт билан мунтазам шуғулланишлари учун шарт-шароитлар яратилди. Аммо шунга қарамай кўзланган мақсадга эришилмади ва бу соҳада аниқ дастур ишлаб чиқиш долзарблигини кўрсатмоқда.



**Тадқиқотнинг мақсади:** гимнастик машқларни турган жойда бажариш орқали давлат хизматчиларини тана вазнини камайтириш, соғлигини яхшилаш ва оммавий спортга жалб этиш дастурини ишлаб чиқиш ва тажрибада асослаш.

Таклиф этилаётган машқларни ҳар куни 5 дақиқадан 2 марта ўтказиш тавсия этилади. Бизнинг тажриба Қашқадарё вилоят ёшлар сиёсати ва спорт бош бошқармасининг 25-40 ёш атрофидаги, турли вазндаги давлат хизматчилари иштирокида олиб борилди (1-жадвал).

Бажарилиши осон бўлган, 500 килокалорияни эритадиган спорт гимнастикаси машқлари йиғиндиси ишлаб чиқилди ва таклиф қилинди (2-жадвал). Дастлабки 1 ҳафтада 2 кун, соат 9.15 дан 9.20га қадар 5 дақиқа 1 марта машқ қилиниши лозим бўлади. Сўнгра бир кундан мунтазамлик ва такрорийлик ошириб борилади. Яъни ҳар куни 2 марта (соат 9.15-9.20, 17.25-17.30). Бунда, ягона талаб овқатланиш рационидан ёғли, зарарли углеводларга бой (хамирли таомлар, ширинликлар) чиқариб ташланади. Натижада бажарилган машқлар ўз натижасини тезда бера бошлайди.

**1 – жадвал. Давлат хизматчиларининг тана вазнлари (тадқиқот бошида).**

№	Тадқиқот гуруҳи		Назорат гуруҳи	
	Исми ва шарифи	Вазни, кг	Исми ва шарифи	Вазни, кг
1	З.Низомова	65	С.Абдужабборова	60
2	М.Зубайдуллаева	50	М.Мардонова	51
3	Ж.Авазов	75	А.Авазов	79
4	Ф.Тошев	86	А.Қахрамонов	89
5	Х.Алмосов	76	Ф.Суннатов	79

**2-жадвал. Бажарилиши лозим бўлган гимнастик машқлар.**

№	Машқнинг номи	Бажарилиш сони	Эрийдиган ккал миқдори
1	Ўтириб туриш	30 марта	35
2	Жойда сакраш	40 марта	60
3	Жойда югуриш	15 марта	40
4	Стулча холатда туриш	1 дақиқа	25

5	Жойда юриш	1 дақиқа	35
6	Выпад машки	20 марта	30
7	Стулга суяниб отжимания қилиш	5 марта	75
8	Енгил отжимания қилиш	15 марта	70
9	Ўтирган ҳолатда оёқ букиш ва очиш	20 марта	50
10	Қўлларни ўнг ва чапга ёйиш	30 марта	60

6 ой давомида тадқиқот гуруҳида махсус дастур асосида иш олиб борилди, назорат гуруҳидагилар фақат тўғри овқатланиш орқали натижалари текшириб борилди.

Тажрибада тадқиқот гуруҳидаги давлат хизматчиларининг вазни, соғлиги ва иш самарадорлиги сезиларли даражада яхшиланганлиги кузатилди (3-жадвалга қаранг).

№	Тадқиқот гуруҳи		Назорат гуруҳи	
	Исми ва шарифи	Вазни, кг	Исми ва шарифи	Вазни, кг
1	З.Низомова	56	С.Абдужабборова	59
2	М.Зубайдуллаева	48	М.Мардонова	53
3	Ж.Авазов	70	А.Авазов	78
4	Ф.Тошев	78	А.Қаҳрамонов	92
5	Х.Алмосов	68	Ф.Суннатов	81

Тадқиқот якунида ўтказилган текширишлар натижаси шуни кўрсатдики, махсус жисмоний машқлар (МЖМ)ни тадқиқот гуруҳида тўлақонли ўзини оқлади, ходимларнинг тана вазнлари сезиларли даражада пасайди, назорат гуруҳида эса аксинча ҳеч қандай ўзгариш бўлмади. Натижаларни ўрганиб чиқиб хулоса этиш мумкинки тавсия қилган машқларимиз муваффақиятли натижа берди.

**Хулоса.** Тадқиқотлар таҳлилидан қуйидаги фикрларни бериш мумкин:

- давлат фуқаролик хизматчилари МГМ (махсус гимнастик машқлар) орқали ортиқча вазндан осон халос бўлишди;

- иш вақтлари ва юкламаларига сезиларли таъсир этмаган ҳолда бир кунда 5 дақиқадан 2 марта махсус гимнастик машқлар бажариш орқали давлат фуқаролик хизматчиларинг меҳнат самарадорлигини янада яхшиланди;

- тадқиқот гуруҳидаги ходимларнинг барчаси ўзлари танлаган спорт турлари билан мунтазам шуғулланишни йўлга қўйди;

- давлат ташкилотида оммавий спортни энгил усулда ривожлантиришга эришилди.

### **Адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6099-сонли фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 ноябрдаги “Юриш, югуриш, мини-футбол, бадминтон, стритбол ва “Workout” спорт турларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 5282–сонли қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 11 апрелдаги “Маҳалла ёшларини оммавий спортга жалб қилишни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 201-сонли қарори.

4. Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги ҳамда Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ўртасида ўзаро англашув меморандуми.

5. Керимов Ф.А. “Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар”. Тошкент. “Zar qalam”, 2004.

## YARIM O‘TKAZGICHLAR FIZIKASINI O‘QITISHDA QATTIQ JISMLAR DASTURLARINI QO‘LLASH BO‘YICHA TADQIQOTLAR

**O‘rinboyev Kumushoy Sultonbek qizi**

Andijon davlat pedagogika inistuti infarmatika

va aniq fanlar kafedrası o‘qituvchisi

**Foziljonova Mahliyo**

Fizika va astranomiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

***ANNOTATSIYA:** Yarimo‘tkazgichli fizikasi kursining o‘qitilish mazmuni qattiq jismlarda kimyoviy bog‘lanish, amorf, va kristall jismlar va ularning mexanik xossalari hamda mexanik kuchlanishlari o‘rganiladi. Qattiq jismlar aniq ega bo‘lgan va uni tashkil etgan atomlar o‘zining muvozanat holati bilan tebranish xususiyatiga ega. Shu jumladan ushbu maqolada qattiq jismlarning atom tuzilishiga ko‘ra turlarini tabiat bilan bo‘lagan holda batafsil ma‘lumot berib o‘tilgan. Shunga ko‘ra, bu jismlar tabiatda qanday ahamiyatga ega ham yoritilgan. Bu jismlar asosan nimalarda kerak bolishi. Ular : Monokkristal, Polikristal hamda Amorf kristaldir, qattiq jismlar va ularning mexanik xossalari haqida ma‘lumotlar beriladi. Amorf jismlar Kristal jismlar va ularning xossalari bizning hayotimizda juda ko‘p uchraydi.*

***Kalit so‘zlar:** qattiq jismlar, amorf, kristal jismlar va mexanik xossalari.*

Hammamizga ma‘lumki hozirda texnologiya juda rivojlangan payt hisoblanadi. SHu bilan birgalikda ilm-fan ham rivojlanishiga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Biz yoshlar bunday sharoitda umumli foydalanishimiz zarur. Hozirda biz yoshlarda aniq va tabiiy fanlarda bo‘layotgan o‘zgarishlar barchani e‘tiborini tortmoqda. Shu jumladan biz bunday o‘zgarish bo‘layotganiga befarq qolmasligimiz juda ham muhim. Hozirda ko‘plab fanlar o‘z o‘rniga ega bo‘lishi bilan birgalikda, fizika fani ham o‘z o‘rnini

topmoqda. Bu faning yuksalishiga sabab o'z ichiga juda ham qiziqarli ma'lumotlar va inson hayoti davomida kerak bo'ladigan majmualar mujjasam. Shuning uchun fizika fanida turli xil ixtirolar mavjud hisoblanadi. Fizika fanida hamma bo'limlar o'ziga yarasha ma'no mazmuniga ega. Bo'limlarda turli xil qiziqarli mavzular jamlanmasi mavjud .Shu jumladan bu fanni asosan poydevori bizga qadimda ma'lum bo'lgan buyuk bobolarimiz bizga qadirli bo'lgan kitoblarda qoldirgan.Bu fanni yuksalishiga bizga me'ros bo'lib qolgan ma'lumotlar o'z dalili hisoblanadi. Mamlakatizmda faolyat olib borayotgan soha mutaxassislarining fikricha. O'quvchilarni o'qitish, o'rgatish va ularning har tomonlama rivojlantirish qonun-qoidalarini o'z ichiga olgan pedagogika sohasi hisoblanadi. Drsni uslubiy yo'nalishlarini izlash va ualrni darsga qiziqtirib o'tishlari zarur. Dars mobaynida turli xil ko'rgazmalardan seminar va turli xil darsga oid majmualardan foydalanish maqsadga muvofiq. O'qitishning an'anaviy usulda eng jiddiy kamchilik-talabalarning dars mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqadigan pas samaradorlik va natija hisoblanadi. Fizika faning eng qiziqarli va juda ma'lumotlarga boy bo'lgan bo'limi olingan. Fizika bo'limi hisoblangan yarimo'tkazgichlar va ularning mexanik xossalari haqida ma'lum qiladi. Yrimo'tkazgich fizikasi bo'limini yoritilishida undagi mexanik hodisalar,mexanik kuchlanishlar va tabiatda kerak bo'ladigan ma'lumotlar yoritlgan.Shu jumladan yarimo'tkazgichlarda qattiq jismlar haqida ma'lumot berilgan. Qattiq jismlar yarimo'takzgichlar bizning hayotimizda ahamiyatga ega hisoblanadi. Qattiq jismlar, bu-mettalar va dialektriklar bo'lib, ularsiz elektrotexnikani, hayotimizda kerak bo'lganligi uchun tasavvur qilib bo'lmaydi. Qattiq jismlarga o'z navbatida amorf jismlar, kristal jismlar va ularning xossalari kundalik hayotimizda ishlatiladigan materiallardir. Qattiq jismlar o'z holatini doim saqlay oladi.Bular qattiq jismlar bo'lsa ham bir biridan fizik va mexanik xossalari orqali farq qiladi.Biz qattiq jismlarning yer sharining,sirtida qattiq jismlardan yasalgan inshooatlarda uylarda yashaymiz. Qattiq jismlar o'zining muvozanat holatini doim saqlab qoladi. Siz kristallarni noyob va chiroyli mineral yoki qimmatbaho deb hisoblarsiz.Lekin hamma kristallar ham kamyob va chiroyli emas. Atrofimizdagi ko'p narsalar keng tarqalgan moddalarning aksaryati

kristaldan. Bu mavzuni yoritish ekanmiz o'zimizga ham kerakli ma'lumotlarni olamiz. Suv muz yoki qor parchalari kristallariga aylanadi. Shu bois tabiatda juda ko'p kristallar mavjud hisoblanadi. Shuningdek kristallar turli o'lchamlarga ham ega bo'lishi mumkin. Kristal bu-moddaning qattiq holati hisoblanadi. U o'zidagi atomlarning joylashuviga ko'ra bir shakilga va qirraga ega. Kristal hosil qiluvchi yuzlab moddalar mavjud Eng ko'p foyda olishingiz mumkun bo'lgan Kristal yoki toshni tanlash uchun avval turli xil Kristal yoki toshlarning xususiyatlarini tekshiring va ma'lum bir ehtiyojni qondira oladigan kishiga boring. Hozirgi payitda yer qobig'ida erigan tog' jinslarining massalari mavjud bo'lib ular asta sekin sovub har xil kristallarni hosil qiladi. Dunyoda ma'lum bo'lgan barcha kristallarni 32 turga bo'lish mumkun. Bu qattiq jism ham fan o'qitish tizmda kerak bo'ladi. Mineral kristallar ham ma'lum tosh hosil qiluvchi jarayonlar tufayli hosil bo'ladi. Yer qarida juda ko'p miqdordagi qaynoq va erigan tog' jinslari aslid mineral eritmalardir. Mexanik kuchlanish faqat shu jismga boshqa jismlarning bevosita tasiri natijasida emas balki o'zgarishi elektr yoki magnit maydon tasiri jismning bir fazadan ikkinchi fazaga o'tish va boshqa tufayli vujudga kelishi mumkin. Xulosa: men hulosa qilib etamanki bu mavzuga doir narsalar bizni hayotimizda juda ko'p kuzatilar ekan. Ularni mexanik kuchlanishlari ham kuzatilar ekan. Bu mavzuni yoritilganda, ularda kuzatilayotgan narsalarni bilib oldim. Har doim dars o'tishda turli xil dars qo'llanmalardan foydalanishimiz maqul. yarimo'tkazgichlar va qattiq jismlardan olgan bilimlarni amalyotda qo'llay bilish kerak. Bu borada juda ko'p tajriba ham bo'lishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A.G.G'aniyeva. A.K.Avliyoqulov.G.A.Almardonov."FIZIKA" 1-qism "O'qituvchi,,T-200.
2. A.G.Gaibov. "Fizika," Toshkent-2022. 3.M.Usmonov."Fizika" qo'llanma. - 2016.
4. I.G.Tursunov. D.A.Begmatova."Fizika" qo'llanma -20021.

## MOLEKULAR FIZIKANI O'RGANISHNING FIZIK VA PEDAGOG ASOSLAR

**O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Avaxonova Mohinisobonu Oybek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Molekulyar fizikani o'rganishning fizik va pedagogik asoslari yoritib berilgan. Maqola davomida xulosa va takliflar berib o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* Molekulyar fizika, moddaning tuzilishi, molekula massasi, Avagadro doimiysi, tabiatshunoslik, mexanika.

Molekulyar fizikani o'rganish tabiatshunoslik fanlari nuqtai nazaridan olamning bugungi manzarasiga bo'lgan ilmiy qarashlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Moddaning tuzilishi va turli xususiyatlarining bunga bog'liq ekanligi-butun fizika kursiga singdirilgan masalalardir. R.Feynman ta'kidlaganidek, "...barcha jismlar uzluksiz harakatda bo'lgan, uncha katta bo'lmagan masofalarda o'zaro tortishuvchi, ammo ulardan biri ikkinchisiga jips joylashgan bo'lsa, itarishuvchi atomlardan va mayda jismchalardan iboratdir". Birgina shu jumlada haddan ortiq ma'lumot jamuljamdir.

Mexanikani o'rganishdan molekulyar fizikani o'rganishga o'tish o'quvchilar bilimlarining oshishida, ularning fizik fikrlashlari shakllanishi va kamol topishida ham ilmiy dunyoqarashlar boyishida butunlay yangi bosqichdir. Mexanik xususiyatlardan farqli o'laroq issiqlik hodisalaridagi yangi xususiyatlar ikki omil: moddaning uzlukli tuzilishi hamda o'zaro ta'sirlashuvchi zarralar (molekulalar, atomlar, ionlar) sonining

ulkanligi bilan izohlanadi. Shu sababli issiqlik hodisalarini tushuntirish uchun mexanikada ko‘rilmagan, yangi, eng avvalo harorat, molekulalarning o‘rtacha kvadratik tezligi, ideal gaz, gazning hajmi va bosimi, ichki energiya, issiqlik muvozanati, kvazistatik jarayon, issiqlik jarayonlarining yo‘nalganligi hamda termodinamikaning birinchi qonuni kabi fizik tushunchalarni kiritish talab etiladi.

Molekulyar fizikani o‘rganish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, issiqlik texnikasi va ma‘lum texnik xususiyatlarga ega bo‘lgan materiallarni yaratish sohasidagi fan va texnikaning ulkan yutuqlarini namoyish etish; issiqlik hodisalarini bilish mumkinligi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi materialistik tasavvurlarini shakllantirish; mexanik hodisalar bilan solishtirish; makro va mikrokattaliklar orasidagi sabab va oqibatli bog‘liqliklarning ehtimoliy statistik xarakterini ochib berish; o‘rgani-layotgan nazariya, qonun va tushunchalarning tadbiiq etish chegaralarini aniqlash; olamning hozirgi zamon tabiiy-ilmiy manzarasining vujudga kelishi va rivojlanishida molekulyar-kinetik nazariyaning ulkan rolini ko‘rsatib berishni o‘z ichiga oladi.

Ideal gaz qonunlari termodinamik va statistik metodlar o‘rganilish natijasida qanday fizik kattaliklarga e‘tibor qaratamiz.

"Molekulyar fizika" bo‘limini o‘rganishning mazmuni va izchilligi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga ko‘ra fizika ta‘lim davlat standartlari ishlab chiqildi. DTS ga ko‘ra, molekulyar fizika bo‘limi quyidagi masalalar turkumini qamrab oladi.

1.Molekulyar-kinetik nazariya asoslari (molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy qonuniyatlari molekulalar haqida asosiy ma‘lumotlar, ideal gaz molekulyar-kinetik nazariyasi).

2.Ichki energiya va ish, issiqlik miqdori, (issiqlik dvigatel-lari ishlashining fizik asoslarini ko‘rib chiqishda foydalanuvchi issiqlik haqidagi tushuncha va qonunlar).

3. Bug‘, suyuqlik va qattiq jismlarning xossalari.

Molekulyar fizikaning o‘quv materialida molekulyar-kinetik nazariya asoslari va ularning tajribada tasdiqlanishi asos qilinib olingan. Bunda o‘rganilishi va izohlanishiga alohida diqqatni jalb etish lozim bo‘lgan klassik hamda fundamental



tajribalar katta va ma'rifiy-tarbiyaviy rol o'ynaydi. Unga molekulalar o'lcham-larining yuqori chegaralarini aniqlash bo'yicha Reley tajribalari, Broun harakati va og'irlik kuchi maydonida zarralar taqsimotini aniqlash borasidagi Perren tajribalari, molekulalar tezligini aniqlash bo'yicha Shtern tajribalari kiradi. Molekulyar fizika va issiqlik hodisalari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilmoq uchun tajriba, kuzatishlar, andozaviy tajribalar, miqdoriy misollar, sodda hisob-kitoblar, mikro va makro olamdagi kattaliklarni solishtirish, o'quv kinofilmlarini namoyish etish butun kursni o'rganish davomida qo'shib olib borilmog'i lozim. Ba'zi bir fizik tushunchalar va qonunlar ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Molekula massasi. Molekula massasini aniqlashning Perren tajribasiga asoslangan metodlaridan birini qarab chiqish mumkin. Perren yaxshilab aralashtirilgan aralashmalarda "begona" moddaning molekulalari o'zini gaz qonunlariga binoan tutishlaridan kelib chiqqan. Buning asosida u, gaz qonunlari ko'p molekuladan tashkil topgan broun zarralari uchun ham o'rindir. Gaz molekulalarining atmosfera bo'ylab ikki sababga ko'ra: barcha molekulalarning yerga "qulab tushishi" ni taqozo etuvchi tortish kuchi hamda molekulalarning turli yo'nalishlarda yerdan «sochilib» ketishini taqozo etuvchi xaotik harakat sababli yuzaga keluvchi taqsimoti tushuntiriladi. Bu ikkita o'zaro zid bo'lgan sabablar atmosfera balandligi bo'yicha gaz molekulalarning barqaror taqsimlanishini ta'minlaydi. Perren tajribalariga asoslangan holda shuni ta'kidlab o'tmoq lozimki, zarralar massasi qancha kichik bo'lsa, shuncha katta balandlikda ularning konsentratsiyasi ikki barobar kamayadi. Shuning uchun gaz molekulalarining atmosferadagi taqsimoti bilan emulsiya zarralarining balandlik bo'yicha taqsimotini solishtirish mumkin.

Avagadro doimiysi. Avagadro doimiysini aniqlashning ko'plab usullari mavjud: Broun harakati bo'yicha, zarralarning tortishish kuchi maydonidagi taqsimoti bo'yicha va boshqalar. Ammo bu usullar asoslangan qonuniyatlar o'quvchilarga hali ma'lum emas. Shuning uchun o'qitishning bu bosqichida quyidagi usullardan foydalanish mumkin. Suyuqlikning monomolekulyar qatlami bilan o'tkaziladigan tajribadan molekulalar chiziqli o'lchamlarining yuqori chegaralari aniqlanadi:  $d = V$ .

Demak, bu qonuniyatlarning mohiyati fizikani o'rganishning birinchi bosqichidayoq moddalar molekulalardan, molekular atomlardan, atomlar yadro va elektronlardan, yadro esa proton va neytronlardan tuzilishini bilib oldik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.-: 2000.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Sharq, 1998.
3. Bugayev A. I. Metodika prepodovaniya fiziki v sredney shkole. -M: Prosvesheniye, 1981.
4. Razumovskiy V.G.,Xijnyakova L. S. Sovremenno'y urok v sredney shkole.-M: Prosvesheniye, 1983.
5. Dimonstratsionny ekspriment po fizike v sredney shkole. ch.1-2. 1978.
6. Kamenskiy S.Ye., P.V. Orexov Fizikadan masalalar yechish metodikasi.- T: O'qituvchi, 1989.
7. Dadaxujayev P., Botirov M. Fizika kabinetlarini jihozlash. -T: O'qituvchisi, 1984.

## ЗАЖИВЛЕНИЕ МЯГКИХ ТКАНЕЙ И КОСТНАЯ РЕГЕНЕРАЦИЯ ПОСЛЕ УДАЛЕНИЯ РЕТИНИРОВАННЫХ ТРЕТЬИХ МОЛЯРОВ НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ БОГАТОГО ТРОМБОЦИТАМИ ФИБРИНА

**Тожиев Ф.И.**

**Шодиев С.Н.**

**Мукимов И.И.**

Ташкентский государственный стоматологический институт

Кафедра хирургической стоматологии

***Введение.** Хирургическое удаление ретенированных третьих моляров нижней челюсти является одной из наиболее часто выполняемых зубоальвеолярных операций хирургами-стоматологами во всем мире. Известно, что это связано с клинически значимой послеоперационной заболеваемостью, включая отек, боль, тризм, лихорадку и инфекцию. Кроме того, остаточному костному дефекту требуется от 7 месяцев до 1 года для постепенного заполнения костью и реоссификации.*

***Ключевые слова:** костное заполнение, лунки экстракции третьих моляров нижней челюсти, богатый тромбоцитами фибрин, обогащенная тромбоцитами плазма, реоссификация.*

**Актуальность.** Хирургическое удаление ретенированных третьих моляров нижней челюсти является одной из наиболее часто выполняемых зубочелюстных операций челюстно-лицевых хирургов и хирургов-стоматологов во всем мире. Известно, что это связано с клинически значимой послеоперационной заболеваемостью, включая отек, боль, тризм, лихорадку и инфекцию. Хирургическое удаление третьего моляра нижней челюсти включает в себя

отведение слизисто-надкостничного лоскута для доступа, удаление вышележащей кости, рассечение зуба (одонтэктомия), удаление зуба, санацию лунки и закрытие лоскута мягких тканей. Это приводит к значительному хирургическому поражению, приводящему к послеоперационной воспалительной реакции в диапазоне от боли и отека до острого тризма, лихорадки и т.д. В некоторых случаях также сообщалось о других менее частых осложнениях, например инфекции, повреждении нерва. Кроме того, остаточному костному дефекту требуется от нескольких месяцев до года для постепенного заполнения костью и реоссификации.

Обогащенный тромбоцитами фибрин (PRF) относится к новому поколению иммунных и тромбоцитарных концентратов, собирающихся на одной фибриновой мембране, содержащей все составляющие образца крови, способствующие заживлению и иммунитету.[1] Хотя цитокины тромбоцитов и лейкоцитов играют важную роль в биологии этого биоматериала, поддерживающий их фибриновый матрикс, безусловно, является определяющим элементом, ответственным за реальный терапевтический потенциал PRF. Было показано, что четыре основных события рубцевания, а именно ангиогенез, иммунный контроль, захват циркулирующих стволовых клеток и эпителизация раны, ускоряют и усиливают заживление благодаря развитию эффективной неоваскуляризации, ускоренному закрытию раны с быстрым ремоделированием рубцовой ткани, и почти полное отсутствие инфекционных событий. Тромбоциты, выделенные из периферической крови, являются аутологичным источником факторов роста, доставляемых в высоких концентрациях к месту костного дефекта или области, требующей аугментации.[1,2] Факторы роста, хранящиеся в  $\alpha$ -гранулах тромбоцитов, включают фактор роста тромбоцитов (PDGF), инсулиноподобный фактор роста, фактор роста эндотелия сосудов и трансформирующий фактор роста- $\beta$  (TGF- $\beta$ ). Когда тромбоциты в концентрированной форме добавляют к материалам трансплантата, результат становится более предсказуемым. PRF был впервые описан Choukroun et al. [1].

во Франции в качестве агента, стимулирующего хемотаксическую миграцию мезенхимальных стволовых клеток человека к месту повреждения. [2,3] Некоторыми из применений PRF в стоматологической хирургии были костная пластика для зубных имплантатов, трансплантаты накладок и вкладок, направляемая кость / ткань. методы регенерации, процедуры синус-лифтинга, процедуры увеличения гребня и закрытие расщелин, дефектов губы и неба. Доказано, что он имеет огромное значение для восстановления костных дефектов, вызванных небольшими кистами, костных дефектов после удаления ретенированных клыков, восстановления свищей между полостью пазухи и ртом и т. д. Хотя было проведено несколько исследований эффективности богатая тромбоцитами плазма (PRP) при реоссификации костных дефектов, образовавшихся в результате удаления зубов, существует лакуна при использовании PRF на мягких тканях и заживлении костей после удаления ретенированных третьих моляров.

**Цели и задачи:** Провести проспективное исследование для оценки различий в заживлении мягких тканей и костной регенерации в местах удаления ретенированных третьих моляров нижней челюсти с включением и без включения аутологичного богатого тромбоцитами фибрина (PRF) в хирургические раны. Также сравнить частоту краткосрочных и долгосрочных осложнений после лечения в обоих случаях.

**Материалы и методы.** Шестьдесят пациентов были случайным образом разделены на две группы по 30 человек в каждой. Первую группу, которая служила основной, составили пациенты, у которых свежий аутологичный PRF помещали в область экстракции сразу после хирургического удаления ретенированного третьего моляра нижней челюсти, до ушивания слизисто-надкостничного лоскута. Во вторую группу, которая служила контролем, вошли те пациенты, у которых слизисто-надкостничные лоскуты были ушиты без включения PRF в область. Обе группы оценивали и сравнивали по

послеоперационной боли, отеку, тризму, заживлению мягких тканей, а также заполнению костной лунки экстракционной лунки.

**Результаты:** Было обнаружено, что в группе исследования, в которой аутологичный PRF был включен в операционное поле, наблюдалось быстрое и без осложнений заживление мягких тканей, а также гораздо более быстрая реоссификация и костное заполнение лунки экстракции по сравнению с контрольной группой в котором не использовался PRF.

Ввиду того, что использование PRF, помещенного в лунку для удаления, привело к снижению послеоперационной заболеваемости и улучшению рентгенологического заживления кости, рекомендуется исследовать больший образец в сочетании с подробными и более объективными рентгенологическими параметрами и протоколами. проверить результаты этого исследования и, возможно, включить использование PRF как часть стандартной процедуры удаления, особенно для сложных удалений или для удаления тех зубов, которые должны быть заменены с помощью зубных имплантатов.

**Вывод:** включение PRF в лунки ретинированных третьих моляров оказалось полезным для пациентов, обеспечив более быстрое послеоперационное восстановление с меньшим количеством осложнений, таких как послеоперационный отек и отек, боль и тризм; лучшие общие послеоперационные результаты с точки зрения более быстрого заживления мягких тканей, а также более ранней регенерации костей.

## Литература:

1. Тимофеев А.А. Руководство по челюстно-лицевой хирургии и хирургической стоматологии. Киев: Червона Рута-Турс; 2002.
2. Шалаев О.Ю. Методологические подходы к рациональному управлению, процессом диагностики и лечения стоматологических заболеваний и их осложнений: автореф. дис. ... д-ра мед. наук. Воронеж; 2008.
3. Tong D.C., Al-Hassiny H.H., Ain A.B., et al. Postoperative complications following dental extractions at the School of Dentistry, University of Otago // *The New Zealand Dental Journal*. 2014. Vol. 110, № 2. P. 51–55.
4. Kiencało A., Jamka-Kasprzyk M., Panaś M., et al. Analysis of complications after the removal of 339 third molars // *Dental and Medical Problems*. 2021. Vol. 58, № 1. P. 75–80. doi: 10.17219/dmp/127028
5. Пономарев А.А. Закономерности строения верхней и нижней челюстей в норме, при различных видах ретенции и отсутствии зубов мудрости: дис. ... д-ра мед. наук. СПб.; 2017.
6. Карданова К.Х. Профилактика и лечение осложнений после операции удаления зуба у пациентов с различным уровнем гигиены полости рта: автореф. дис. ... канд. мед. наук. Ставрополь; 2011.
7. Абдышев Т.К., Ешиев А.М. Ретроспективное изучение причин развития альвеолита // *Молодой ученый*. 2015. № 11 (91). С. 615–618.
8. Daly B., Sharif M.O., Newton T., et al. Local interventions for the management of alveolar osteitis (dry socket) // *The Cochrane Database of Systematic Reviews*. 2012. Vol. 12. P. CD006968. doi: 10.1002/14651858.CD006968.pub2
9. Cho H., Lynham A.J., Hsu E. Postoperative interventions to reduce inflammatory complications after third molar surgery: review of the current evidence // *Australian Dental Journal*. 2017. Vol. 62, № 4. P. 412–419. doi: 10.1111/adj.12526
10. Кулаева Е.С. Лечение альвеолита с использованием низкоинтенсивного лазерного излучения и современных фармакологических препаратов: дис. ... канд. мед. наук. Тверь; 2019.

## PROFESSIONAL TA'LIMDA RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI ISHLAB CHIQUARISHNING MOHIYATI VA AFZALLIKLARI

**Yusufali Moloshov, Saidaxon Kaxxorova**

To'rao'rg'on Agrotexnologiyalari  
texnikumi maxsus fan o'qituvchilari

***Annotatsiya:** Maqolada ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, bozor iqtisodiyotida mehnat bozoriga malakali, zamon talabidagi yetuk kadrlarni yetkazib berish muhim vazifa hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:** Zamonaviy ta'limda ta'lim berish uchun ta'lim texnologiyasi, yetuk kadrlarni yetkazib berish, professional ta'lim tizimini.*

Barchamizga ma'lumki Respublikamizda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, bozor iqtisodiyotida mehnat bozoriga malakali, zamon talabidagi yetuk kadrlarni yetkazib berish masalasi xozirgi professional ta'lim tizimini bo'g'inlariga qo'yilgan muhim talablardan hisoblanadi.

Zamonaviy ta'limda ta'lim berish uchun ta'lim texnologiyasi makonini yaratish, boyitish, ta'limda raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish orqali ta'lim tendensiyalarini o'zgartirish bugungi ta'lim talablaridan biri hisoblanadi.

**Xo'sh Raqamli ta'lim resurslari o'zi nima?**

**Raqamli ta'lim resurslari (RTR)**, boshqa so'zlar bilan aytganda, "virtual o'qish resurslari", "onlayn o'qish resurslari", "onlayn ta'lim resurslari" kabi atamalarda ham ishlatilishi mumkin. RTR, ta'lim va o'qish jarayonlarini raqamli vositalar orqali olib borishni yoki ularga qaraganda tashkil etishni ifodalaydi. RTR, o'qish va o'qitishni, ilmiy tadqiqot va o'quvchilarning o'zlashtirilishi va yaxshilashini yaxshi samaraga aylantirishni maqsad qilgan modern texnologiyalardan biridir.



**RTR ning turli xil turlari** mavjud, masalan:

**Interaktiv ta'lim dasturlari:** Bu dasturlar, o'quvchi va o'qituvchilarning o'qitish va o'rganish jarayonlarini avtomatlashtirgan dasturlardir. Masalan, Learning Management Systems (LMS) kabi platformalar.

**Videolar:** Video darsliklar, o'qituvchilar tomonidan yaratilgan va o'quvchilarning o'zining rejalari bo'yicha ta'lim oladigan onlayn darsliklar.

**Batafsil dasturlar:** Ushbu turlar, foydalanuvchilarni o'qishni o'rganishlari uchun interaktiv dasturlar bilan ta'minlaydi.

**Mo'ljallangan ta'lim dasturlari:**

Bu dasturlar, mahsulotlarning, turli fanlar va ko'nikmalar uchun mo'ljallangan ta'lim dasturlaridir



**Professional ta'limda Raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish**


- bu o'qitishning yangicha yondashuvi ya'ni zamonaviy o'qitish texnologiyalari resurslarini ishlab chiqish, o'qitish uslublari va tadqiqotlar qilish ,tegishli uslubiy vazifalar va ta'lim berish muammolarini hal etishga;-Professional ta'limda Raqamli ta'lim resurslari orqali kasb-hunar berishda natija uchun ishlashga, ta'lim sifati va uning

natijalarini yaxshilashga, o'qitish metodikasi orqali bilimlarni yanada sifatli o'zlashtirilib, ta'lim berishga ta'siri va qaytishiga ijobiy ta'sirini ko'rishimiz mumkin;-

Mundarija	
1-Mavzu	1-Mavzu: Soliq tushunchasi. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati
2-Mavzu	2-Mavzu: O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining shakllanishi, rivojlanishi
3-Mavzu	3-Mavzu: Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari. Soliq kodeksi va uning ahamiyati
4-Mavzu	4-Mavzu: Yuridik shaxs tushunchasi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar
5-Mavzu	5-Mavzu: Yuridik shaxslarning daromadiga (foydasiga) soliq, QQS va boshqa soliq turlari
6-Mavzu	6-Mavzu: Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash va to'lash tartibi
7-Mavzu	7-Mavzu: O'zbekiston Respublikasining norezidentlarning daromad (foyda) sig'a soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.
8-Mavzu	8-Mavzu: O'zbekiston hududida chet el yuridik shaxsini soliqqa tortiladigan bazasini hisoblash
9-Mavzu	9-Mavzu: Chet el yuridik shaxsining daromadiga soliq hisobi va to'lov muddati
10-Mavzu	10-Mavzu: Egri soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash tartibi

Raqamli ta'lim resurslari orqali amaliy natijalarga erishish, o'qitish usullarini zamonaviylashtirish, bilim almashinuvi vaqt me'yori doirasida tejalishi, zamonaviy voqelikni bilim oluvchi tomonidan to'laqonli va tez anglanishi, o'qitish usullarini sifati oshishini ko'rishimiz mumkin. -Raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish orqali pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini zamonaviy ta'lim berishda pedagogik mahorat va tajribalarini oshishi, o'qitish natijalari chinakamiga yaxshilanishi, kasbiy malakaviy ko'nikmalardan samarali foydalanishga va natija ustida ishlashga olib keladi; Zamonaviy ta'limda konstruktiv yondashuv, ya'ni ta'limni aktallashtirish, o'qitishda talabalar mavjud ra'qamli ta'lim resurslari orqali bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va almashish tizimini tashkil etiladi;

-O'qituvchilar uchun Raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish ta'lim sifatini qo'llab –quvvatlash tizimini yaratish,fan dasturlari mavzularini loyihalash,bilim berishda maqsad va vazifalarni belgilab beradigan maxsus dastur hisoblanadi.



-Ta'lim sohasida Elektron o'qitish zamon talabiga xos ravishda ommalashmoqda,bu o'z navbatida Raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish orqali ta'limda yangi texnologiyalardan oqilona foydalanish,offline o'qitishda vaqt doirasida yetkaza olinmagan bilimlarni online o'qitish orqali raqamli resurslardan foydalanib yetkazish qulayligi bildiradi.

Shu bilan birga talaba bilimni baxolash, uni tushinish orqali tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish,talabalar har doim biror bir dars yoki alohida darsni yuklab olishi va istalgan paytda Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079- sonli Farmoni, 2020 yil 5 oktyabr.

2. Maxkamova, S., & Jabbarov, R. (2022). Axborot – kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasviriy san’at ta’limi samaradorligini oshirish metodikasi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar.

**TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISH ORQALI  
TARBIYALANUVCHILARDA MILLIY G'URURNI  
SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYASI**

**Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna**

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti (PhD)

**Qayumova Dilsora Nurali qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası v.b.dotsenti (PhD)

**Ramozonova Baxoroy Sadriddinovna**

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

*Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirish mazmuni yoritib berilgan.*

*Tayanch tushunchalar: milliy qadriyat, milliy g'urur, tarixiy me'moriy obida, milliy iftixor, madaniy-tarixiy meros.*

Tarix saboqlaridan ma'lumki, inson qalbiga bunyodkor g'oyalarni singdirish ma'naviy barkamollikni ta'minlaydi. Bu kabi bunyodkorlikga da'vat umuminsoniy va diniy qadriyatlarimizga hurmat, ularni sevib o'qish va uqishda ham mujassam. Bunday tarbiya bolalarga milliy qadriyatlarimizning sarchashmalari, Qur'onu karim, Hadis shariflari, ajdodlarimizning boy madaniy merosi, tarixiy yodgorliklar, obidalar orqali singdirib kelingan. O'tmishni, tarix tajribasini o'rganish, ajdodlar yaratgan betakror moddiy va ma'naviy merosni asrash va targ'ib etishda, istiqloq yo'lidagi maqsadlarimizni aniqlashda Vatanimiz boy madaniy merosi, obidalari, tarixiy yodgorliklari va mustaqillik inshootlari bilan tanishtirish yosh avlod ongida Vatanga,

milliy qadriyat va an'analarga hurmat va bilimga intilish hislari, yangicha e'tiqod va dunyoqarash asoslari shakllanadi.

Tarixiy obidalar vositasida bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalash jarayoniga kompleks yondashish talab etiladi. Jumladan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan tadbirning birinchi, tayyorgarlik bosqichida tanishtiriladigan me'moriy obida haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Ikkinchi bosqichda esa bevosita obidaga maqsadli sayohat uyushtiriladi. Uchinchi bosqichda olingan taassurotga munosabat bildiriladi, ya'ni bolalarni ushbu tabarruk joylar bo'ylab sayohatlari ularni tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida mustahkamlanadi. Shuningdek, bu tadbir bolalarning taassurotlari asosidagi hikoyalari tarzida bo'lishi ham mumkin. Yakunlovchi bosqichda esa tarbiyachi tomonidan tasvirlangan rasmlar, bolalarning hikoyalari sharhlanadi va umumlashtiriladi. Shubhasiz shunday didaktik tizim asosida amalga oshirilgan tadbir tarbiyaviy samara beradi.

Tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirish jarayonida o'tilgan mashg'ulot mavzusi, maqsad va vazifalariga monand tarzda o'tkaziladigan faoliyat turlari ta'limiy va tarbiyaviy tizimning ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim. Bu omil mazkur dissertatsiyada tadqiq etilayotgan asosiy muammo - bolalarda milliy g'urur elementlarini tarkib toptirish bilan bir qatorda ularning dunyoqarashini rivojlantirish, shu tariqa ularni maktab ta'limiga tayyorlash muammolari ham parallel tarzda hal etib boriladi.

Sharq me'morlik obidalarining asosiy elementlari – peshtoq, gumbaz, minora kabilarning shakli, shuningdek, ularning ranglari (gumbazlar, odatda moviy rangda bo'ladi), bezaklari (minoralar, peshtoqlar turli naqshinkor bezaklar, arabiy yozuvlar bilan ziynatlanadi)ning shakllari va ranglari turli didaktik o'yinlar vositasida tushuntirilishi ularni o'zlashtirish darajasini yuqori bo'lishiga zamin yaratadi. Bu turdagi mashg'ulotlar birinchi navbatda bolalarning ranglar va shakllarning sensor etalonlarini anglashga undaydi va bolalarda rivojlantiruvchi ta'lim vazifasini o'taydi. Bu jarayonda bolalarning e'tiborini me'moriy obidaning u yoki bu elementi nima uchun shu ko'rinishda, shaklda (masalan, gumbaz), shu rangda bunyod etilganligiga

qaratadigan bo‘lsak, unga qo‘shimcha tarzda ajdodlarimizning bu boradagi qarashlari, yondashuvlari tushuntirib o‘tilsa bolalarning sensor rivojlanish jarayoni, unga hamohang tarzda ko‘rgan, idrok etgan hamda anglagan ob‘ektlaridan milliy moddiy va ma‘naviy qadriyat sifatida g‘ururlanish hislarini shakllanish jarayoni samarali kechadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘lim-tarbiya jarayonini kuzatish natijasida ma‘lum bo‘ldiki, kompleks mashg‘ulotlarda bolalarda malaka va ko‘nikmalarning sifatini oshirish asosida samarali yutuqlarga erishish mumkinligi isbotladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonini tashkil qilish shakllaridan quyidagilar aniqlandi:

- tarixiy yodgorliklar, ma‘rifiy maskanlar, san‘at koshonalari hamda mustaqillik davrida qad ko‘targan inshootlar bo‘ylab ekskursiyalar tashkil etish;
- «Vatan tarixini bilmay turib, uni to‘la sevib bo‘lmaydi», «Vatan ostonadan boshlanadi» mavzusida suhbatlar o‘tkazish;
- tarixiy obidalarimiz – faxrimiz mavzusida tadbirlar o‘tkazish;
- «Ajdodlarimiz merosini asrab avaylaymiz» mavzusida mujassam mashg‘ulotlar, suhbatlar tashkil etish;
- me‘morlar va hunarmand ustalar bilan uchrashuvlarni muntazam uyushtirib borish.

Bularning barchasi ta‘lim va tarbiyaviy ishlarning mazmuni va yo‘nalishini anglatuvchi tadbirlardir. Bolalar bilan tarixiy me‘moriy obidalarga sayohat uyushtirish, san‘at asarlarining go‘zalligidan ta‘sir lanish orqali milliy g‘urur elementlarini tarkib toptirishga hamisha ham birdek e‘tibor qaratilayotgani yo‘q. Ajdodlarimizning ulkan mehnatlari evaziga qad rostlagan ushbu osori atiqalar, tarixiy me‘moriy obidalar ta‘lim-tarbiyaning nihoyatda kuchli vositalaridir, ular bolaning estetik olamiga, ruhiy dunyosiga benihoya kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday sayohatga borgan bolalar undan olgan go‘zal taassurotlarini bir umr unutmaydilar.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni tarixiy obidalar vositasida milliy g‘urur elementlarini shakllantirishni yuqori darajada ta‘minlash bolalarning tarixiy

obidalariga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga xizmat qiladi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonida samarali natijalarga erishishga olib keladi.

Maqsadga muvofiq biz quyidagi vazifalarni belgilaymiz:

Badiiy vazifalar:

- bolalarni me'morchilik asarlari bilan tanishtirish, ularning qiymatini aniqlash va badiiy va obrazli tuzilishini ta'kidlash;

- bolalarning o'z shahri, qishlog'ining me'moriy merosi haqidagi bilimlarini kengaytirish, qishloqning tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga hurmatni tarbiyalash;

- O'zbekistonning mintaqaviy madaniyati bilan tanishtirish, me'moriy yodgorliklar bilan tanishtirish, vatandoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini va badiiy iste'dodidan faxrlanishni tarbiyalash;

- me'morchilik kasbiga oid elementar bilimlar va tushunchalarni shakllantirish uchun kompleks faoliyatlar tizimidan foydalanish.

Badiiy va vizual vazifalar:

- maktabgacha katta yoshdagi bolalarga vizual ijodning har xil turlarida badiiy va tasviriy vositalarni o'zlashtirishga ko'maklashish;

- badiiy va ijodiy ishlab chiqarish faoliyatining har xil turlari: rasm chizish, modellashtirish, applikatsiya ishlari, badiiy asarlar va turli xil materiallardan qurishda badiiy materiallar bilan ishlashning boshlang'ich ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish.

- arxitektura san'atiga estetik, hissiy va qadriyatli munosabatni rivojlantirishga ko'maklashish: bolalarni jamoaviy tadbirlarda ishtirok etishga va ongli, mustaqil badiiy va me'moriy obraz yaratishga undash, unga adekvat baho berish va o'ziga xoslikni yaratish. Vazifalarga muvofiq, biz bolalarda shakllanishi kerak bo'lgan Vatanimiz haqida quyidagi fikrlar:

- o'z shahri tarixini bilish: uning yaratilishi va tashkil etilishi, shahrida sodir bo'layotgan muhim tarixiy voqealar, shuningdek, o'z shahrining rivojlanishiga hissa qo'shgan tarixiy shaxslar va mahalliy aholi haqida;



- shaharning tarixiy yodgorliklari va diqqatga sazovor joylari: yodgorliklar, muzey majmualari, arxitektura, bog'lar va xiyobonlarni bilish;

- tabiiy xususiyatlar haqidagi bilimlar.

Shundan kelib chiqib, "bolalarning o'zlarining tug'ilgan shahri haqidagi bilimlari" tushunchasini aniqlash mumkin - bu bolalar xotirasida paydo bo'lgan mahallasining ilgari qabul qilingan diqqatga sazovor joylari va xususiyatlarining hissiy rangdagi tasviriy ishlari.

O'z shahrini o'rganish orqali bolalarni o'zlarining tug'ilgan shahri, qishlog'i haqidagi bilimlarini shakllantirish bo'yicha ishlarni bosqichma-bosqich va ketma-ketlikda tashkil qilish, dastur bilimlarini o'zlashtirish, shuningdek, diqqatga sazovor joylarni va me'moriy xususiyatlarni chuqur o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Bolalarni o'zlarining shaharlari bilan tanishtirishning eng samarali shakllari, uning me'moriy xususiyatlari:

- shaharning unutilmas tarixiy joylariga, unutilmas diqqatga sazovor joylariga, istirohat bog'lari va maydonlariga ekskursiyalar, shuningdek muzeyga ekskursiyalar;

- virtual ekskursiyalar (bu xususiyat bolalarga tarixiy ravishda yo'qolgan xususiyatlar va diqqatga sazovor joylarni ko'rsatish imkoniyatidir);

- shahar aholisining jasoratlari, ularning shahar tarixiga qo'shgan mehnat hissalarini to'g'risida taqdimotlar, video va foto materiallarni ko'rish;

- taniqli madaniyat va san'at arboblari, shahar faxriylari bilan, iloji bo'lsa, zamonaviy me'morlar bilan uchrashuvlar;

- badiiy-estetik yo'naltirilgan bolalarning samarali faoliyati.

Tarixiy obidalarni o'rganish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan asosiy qism bolalar bog'chasidan chiqmasdan, qiziqarli tarzda, bolalardagi ona shahri haqida keng tasavvurni shakllantirishga imkon berganligi sababli interaktiv ekskursiyalar shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Bolalarda me'morchilik kasbining xususiyatlari va tushunchalarini idrok etish va tushunishni rivojlantirish, o'zlarining tug'ilgan shahar, qishlog'iga hurmat va e'tiborli

munosabatni rivojlantirish asosida tarbiyachilar ta'lim jarayonini tashkil qilishda quyidagi mavzularda taqdim etilishi mumkin bo'lgan kompleks mavzuli yondashuvdan foydalanadilar:

- mavzu bo'yicha dastlabki ishlar (o'lkashunoslik materiallarini yig'ish va tanishtirish, me'moriy ekskursiyalar bilan tanishish);
- Tarixiy obidalarga virtual ekskursiyalar + evristik suhbat;
- maktabgacha katta yoshdagi guruhda tarixiy obidalar bilan tanishtirish yuzasidan loyiha ishlab chiqish;
- didaktik o'yinlar;
- eksperimentlarni o'z ichiga olgan badiiy va ijodiy vazifalarni bajarish.

Ota-onalar bilan ishlash bolalarning o'z shaharlari haqidagi bilimlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Birgalikda ekskursiyalar, shaharning ko'chalari va esda qolarli joylari bo'ylab ota-onalar bilan sayr qilish, sayohat qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ular olingan ma'lumotlar va taassurotlarni samarali faoliyatda ifoda eta oladilar.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). Development of imaginary-creative competences in the process of preparing future teachers for profession. In *Next Scientists Conferences* (pp. 84-91).
2. Khasanova, S. (2021). The role of historical architectural monuments in the formation of national pride by preschool adult children. In *Pedagogika i psixologiya v sovremennom mire: teoreticheskie i prakticheskie issledovaniya* (pp. 103-107).
3. Khasanova, S. (2021). Formation of national pride in children through teaching description of historical monuments in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal*, 11(2), 734-738.

4. Muratova, M. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarni ta'lim tarbiyaviy jarayonda faol ishtirokini ta'minlashning amaliyotdagi holati. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.
5. Sadriddinovna, R. B. (2022). Technologies for increasing of students' learning competencies in the course of pedagogical practice. *Confrencea*, 6(6), 226-227.
6. Yakubova, Z. Z. (2023). Milliy tarbiya asosida bola shaxsini rivojlantirishda oila, maxalla va maktabgacha ta'lim tashkilotlar hamkorligi. *GOLDEN BRAIN*, 1(15), 141-147.
7. Махмудова, D. A. (2023). Проблемы сифрвоу педагогики i razvitie сифрвоу kompetentnosti obuchayущixся. *Luchshie intellektualnye issledovaniya*, 8(1), 143-147.
8. Nuraliyevna, Q. D. (2021). Approaches to the development of inclusive competence in preparation of future teachers for professional activity. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2314-2320.
9. Nuraliyevna, K. D. (2021). INCLUSIVE EDUCATION IN KINDERGARTEN. *Наука и образование сегодня*, (4 (63)), 82-83.
10. Sadikova, S. A., Yakubova, Z. Z., Kayumova, D. N., Khalilova, D. F., & Kamalova, G. A. (2023). Preparing Children for Social Activity in Preschool Educational Organizations-Pedagogical Need. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S-2), 1777-1784.
11. Zikirovna, Y. Z. (2023, February). EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL TRADITIONS. In *Conference Zone* (pp. 257-262).

## FIZIKA FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI VA ILM-FANDAGI YANGILIKLAR

**O‘rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Fizika va astronomiya fani o‘qituvchisi

**Ibrohimjonova Zuhra Ikromjon qizi**

102-gurux talabasi

***Annotatsiya:** Fizika fanining jamiyatdagi o‘rni. Ta’lim sifatini oshirish va ilmiy taraqqiyotlarni rivojlantirish, oquvchi va talabalarni fizika faniga qiziqtirish, erkin fikrlari, qobiliyatlarini oshirish va shu bilan bir qatorda mavzu bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Rentgen nurlari, UZI, EMRT, EKG, fizika, ekologik muammolar, arxitektura, transport, texnika va texnologiyalar, IT.*

Fizika bu – qiziqarli hayotiy fandır. Fizikani bilgan odam mashina, uy, zavod, fabrikalar, insonlarni ishini yengillashtiruvchi texnika va texnologiyalar yaratish mumkin.

Bir necha asrlar davomida aniq va tabiiy fanlar dunyo va O‘zbekiston zaminida keng rivojlanib, O‘rta Osiyo hududi butun jahon intellektual markazi bo‘lib kelgan.

Fizika elementar zarrachalardan to‘gallaktikagacha bo‘lgan obyektlar va turli tuman hodisalarni o‘rganadi. Fizikani o‘rganish, insonlarni bilish va mantiqan fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Fizika ilmiy-texnika taraqqiyoti va tabiiy-ilmiy bilimlarning asosi hisoblanadi.

Fizika va texnikaning rivojlanishi o'zaro chambarchas bog'liq. Fizika kashfiyotlar texnikaning rivojida muhim ahamiyatga ega, yana texnika taraqqiyoti fizikaning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Fizika fani barcha tabiiy fanlarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tadqiqot uslublarini ishlab chiqadi. Masalan: hozirgi kunda yadroviy tadqiqotlarni zamonaviy texnika qurilmalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Tabiiy va ko'plab fanlarning asoslari fizikadir.

Boshqa fanlar qatori fizika fani ham uzluksiz rivojlanib boradi. Oldingi

XX asr fizika texnologiyalar asri deya e'tirof etilgan. Zamon kun sayin rivojlanib bormoqda, bundan ko'rinib turibdiki, fizika hayotimizni har bir javhasiga asta-sekin kirib kelmoqda.

Fizika fanini hozirgi yoshlar formulalardan iborat deb o'ylashadi. Aytganimizdek, fizika har bir sohaga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. Masalan: tibbiyot sohasini olaylik, bu sohada insonni jismoniy holatini tahlil qilish hamda shu natijalar orqali to'g'ri tashxis qo'yish muhimdir. Bunda tibbiyot hodimlari tekshiruv asboblari masalan EKG, EMRT, UZI, RENTGEN qurilmalari va boshqa shu kabi asboblarga tayanadilar. Bu asboblarning ishlashida esa albatta fizika fani yotadi.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatdan ham, fizika qonuniyatlarini chuqur egallasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarda natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ta'limda shu fanlarni o'qitishni tubdan oshirish, ixtisoslashgan maktablar ochish, malakali pedagoglarni jalb etish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Chunki fizika olis o'tmishdan to hozirgi kungacha hayotimizni osonlashtirish, og'irimizni yengillashtirish uchun xizmat qiladi. Fizika qonun qoidalarga asoslangan holda texnika va texnologiyalar ishlab chiqiladi, atrofimizdagi barcha qurilmalar, qo'limizdagi telefon, noutbook, soat va boshqa narsalar ham fizika fani mahsulidir.

Hozirda biz bularsiz, ovqat pishirish, uy tozalash, musiqa tinglash kabilarni tasavvur qilolmaymiz.

XX asrning 40-yillaridan boshlab O'zbekistonda fizika fanini rivojlantirish jarayonida nufuzli ilmiy maktablar tashkil etildi. Hattoki davlat qabul komissiyasining bakalavr uchun jami ta'lim yo'nalishlari soni 471 ta belgilangan bo'lsa, shulardan 143 tasi ya'ni 30% aynan fizika va matematikani tashkil qilmoqda. Fizika matematika ta'lim yo'nalishlari boshqa sohalarga nisbatan ancha ko'p talab borligi ayni haqiqatdir. Aynan fizika va matematika sohasiga kiruvchi IT sohasi, sun'iy intellekt va robototexnika, giolog, energetika, transport, arxitektura va boshqa muhim sohalarni o'z ichiga oladi.

Texnika va texnologiyaning rivojlanishida fizikaning o'rni kattadir.

Hozirgi kunda fizikaning elektron darsliklari ishlab chiqilmoqda. Biz bulardan umumli foydalanishimiz kerak. Agar biz fizikani bilmasak, elektrni qanday tuzatamiz, uyimizdagi gaz plita, duhofka va boshqa narsalarni tuzatish uchun ham fizika fani kerak bo'ladi.

Mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyoti tabiat resurslaridan samarali foydalanish, ekologik muammolarni yechish, kosmosni o'zlashtirish, mudofaa salohiyati, texnika va energetikaning rivojlanishi, fan manbalari uchun materiallar, hamda zamonaviy texnologiyalarni yaratish kabi barcha yo'nalishlar fizika fani va fizika ta'lim darajasiga bog'liq.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga e'tibor qaratilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T. 2000
- 2) T. Azixodjayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma T. 2006
- 3) Ergashev J, va Berkinov A. 2020. Yarim o‘tkazgichlar fizikasini o‘qitish metodikasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti "Iste’dod" jamg‘armasi. 2010.

## GALAKTIKALAR MAVZUSI ORQALI TALABALARNI ASTRANOMIYAGA QIZIQTIRISH

**O‘rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Informatika va aniq fanlar kafedrası o‘qituvchisi

**Toshpo‘latova Gulnoza Fayzullo qizi**

**Nasvaliyeva Gulbahor Oribjon qizi**

Fizika va astronomiya yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

***Annotatsiya:** Maqolada astronomiyaga talabalarni qiziqtirish uchun birgina mavzu orqali pedagogik mahoratini oshirish shu asnoda metodikasini o‘stirish va shu orqali o‘quvchilarning bilim darjasini, Ta’lim sifatini oshirish uchun ko‘rsatmalar berib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Pedagogik mahorat, astronomiya, galaktika, metodika o‘qituvchi, talaba, munosabat, ta’lim, o‘qitish sifati.*

Bugun ta’lim iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini shakllantirish, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib “Uzluksiz Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli Ta’lim xizmatlariga imkoniyatlamini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash” bugungi kunning dolzarb vazifalaridan ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdilar. “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, Ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va



farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.” Zamonaviy hayotni bugun ilm- ma’rifat va Ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotgandek go‘yo. O‘zbekiston uchun istiqbolli, davlat talablariga mos keladigan Ta’lim tizimini yaratish porloq kelajakka yo‘naltirilgan yagona yo‘ldir. Mamlakatimizda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar Ta’limni insonparvarlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatini oshirdi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ham ko‘rishimiz mumkinki yurtimizda ilm, fan, Ta’lim sohasiga alohida e’tibor berilmoqda. Bununng yaqqol misoli sifatida hurmatli yurtboshimiz muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham juda katta e’tibor bermoqda. Bu imkoniyatlarga munosib javob qaytarish uchun yetuk kadrlarni yetishtirib chiqarish kerak. Talabalarni o‘z sohasining ustasi, kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishib chiqishi uchun o‘qituvchilardan juda katta mashaqqatli mehnatni talab etadi. Albatta buning uchun o‘qituvchilardan yaxshi metodika hamda psixologik jihatdan yaxshi pedagogik mahoratni talab etadi.

Ma’lumki, uzluksiz Ta’lim oldiga qo‘yilgan vazifalar, yangi qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ko‘rsatilgan muammolarni hal etish o‘qituvchupedagog tomonidan hal qilinadi. Avvalo, o‘qituvchidan fani doirasida ma’lumotlarni, axborotlarni fan yangiliklarini o‘zlashtirishda va Ta’lim oluvchilarda yetkazadi. Bu albatta muloqot orqali hal etiladi. Buning uchun o‘qituvchi pedagogik mahorat, pedagogik texnika, pedagogik madaniyat kabi qirralarini mukammal o‘zlashtirishi bilan birga pedagogik muloqot va uning zamonaviy usullaridan to‘liq xabardor bo‘lishi talab etiladi. Shuni unutmaslik kerakki, pedagogik faollik pedagogik ijodkorli, pedagogik natijaviylik, pedagogik muloqot bilan chambarchas bog‘langan. Shu bois pedagogik muloqot usullari zamon talablari, Ta’lim-tarbiya ehtiyojlari pedagogik vazifa xususiyatlariga qarab takomillashtirib, mukammallashtirib boriladi.

XX asrgacha koinot yagona bizning Gallaktikamizdan iborat deb qaralgan fikr hukumronlik qilar edi. Keyinchalik bizning Gallaktikamizdan tashqarida juda ko'p bizning Gallaktikamizga o'xshash Gallaktikalar mavjudligi aniqlandi. Uzoqdagi bunday yirik yulduzlar sistemalari tumanlik shaklida ko'ringanligi sababli ularga tumanliklar deb ataganlar. Tumanliklardan kelayotgan nurlanish spektrlarini, olish va analiz qilish shuni ko'rsatdiki tumanliklarning spektri yulduzlar sistemalarini spektriga juda o'xshashdir. Ya'ni tumanliklar bizdan juda uzoqda joylashgan yulduz sistemalari Gallaktikalardan iboratdir. Tumanliklarning tipik vakili Andromeda tumanligidir. Bu tumanligi tashqi Gallaktikalardan biri ekanligi hozirgi vaqtda uzul kesil isbotlangandir.

Tunda qorong'u osmonga qarasak osmon yulduzlarini va osmon sferasining o'rtasida butun osmon bo'ylab cho'zilgan yulduzlar tasmasi, somon yo'lini ko'ramiz. Somon yo'li bizning Gallaktikamizni ya'ni Quyosh sistemasini o'z ichiga olgan yulduzlar sistemasini, yulduzlar nisbatan zich joylashgan belbog' qismini tashkil etadi. Belbog'ning o'rtasida o'tkazilgan tekislik osmon ekvatori tekisligi bilan 62 gradusli burchak tashkil etadi.

Tashqi Galaktikalar o'lchamlariga ko'ra turlicha kattaliklarda ucharaydi, eng kattalari milliardlab yulduzlardan tashkil topgan bo'lsa, kichiklari bir necha millionlab yulduzlardan tashkil topgan. Gigant Gallaktikalarning o'lchamlari 50ming parsekgacha (ya'ni diametri 150 ming yorug'lik yiliga teng) bo'lgani holda eng kichiklari yuz parsekdan oshmaydi. Hozirgi zamonda qayd etilgan Gallaktikalarning soni bir necha milliardni tashkil etadi. Biroq ularning juda kichik qismi o'rganilgan va kataloglashtirilgandir. Bunday kataloglardan biri Voronsov Velyaminov katalogi bo'lib uni kattaligi 10,1 dan ravshan 30000 Gallaktikalarni o'z ichiga oladi. Gallaktikalar tashqi ko'rinishiga ko'ra turli tuman bo'lsa ham o'xshash tomonlariga ko'ra 3ta sinfga bo'inadi. Elliptik (E), spiral - (S), Noto'g'ri - (Igch) Gallaktikalar. Elliptik Gallaktikalar tashqi ko'rinishiga ko'ra ellips yoki doira shakliga ega bo'lgan Gallaktikalardir. Bunday Gallaktikalarning asosiy xususiyati shundan iborat bo'ladiki ularning ravshanligi markazidan sirtiga tomon bir tekis kamayib

boradi. Spiral Gallaktikalar juda ko'p tarqalgan Gallaktikalar bo'lib, kuzatilgan Gallaktikalarning qarib yarmi shu sinfdagi Gallaktikalardir. Boshqa Gallaktikalardan farqli ularning strukturasi aniq spiral yenglardan iborat bo'ladi. Andromeda va bizning Gallaktikamiz spiral Gallaktikalarning vakllaridandir. Spiral Gallaktikalar yana ikkiga bo'linadi, markaziy yadrodan boshlanuvchi (SA) Gallaktikalar va spiral shaxobchalaridan yadro o'rnida diametri bo'ylab cho'zilgan ko'priksimon strukturaning uchlaridan boshlanuvchi (SB) Gallaktikalar. Noto'g'ri Gallaktikalarda yadro bor yo'qligi bilinmaydi va ular aylanma simmetriyali strukturaga ega emas. Bunday Gallaktika vakili katta va kichik mogelon bulutlidir. Noto'g'ri Gallaktikalarda shuningdek pekulyar gallaktikalar ham kiradi. Bundan gallaktikalarda umumiy ko'rinish strukturasi mavjud bo'lmaydi. Tashqi gallaktikalarni spektri yulduzlar spektrini eslatib, yutilish chiziqlaridan tashkil topadi. Ular tarkibiga ko'ra yulduzlarning spektridan faqat ayrim gaz tumanliklarini spektrlariga uchraydigan emission chiziqlari borligi bilan farq qiladi. Bundan gallaktikalar, yulduzlar sistemasi va diffuzmateriyadan tashkil topganligi ayon bo'ladi. Noto'g'ri gallaktikalarning spektri A va F spektral sinflarga, spiral gallaktikalariniki F va G sinflarga va nihoyat elliptik gallaktikalariniki G va K sinflariga kiruvchi yulduzlarning spektrini eslatadi. Bundan spiral va noto'g'ri gallaktikalarda boshlang'ich spektral sinflarga kiruvchi qaynoq va yosh yulduzlarning ko'pligi elliptik gallaktikalar esa nisbatan yoshi o'tgan keyingi spektral sinflariga mansub yulduzlarga boyligidan darak beradi.

Bu mavzuni bunday usulda o'tsa albatta talabalarga biroz zerikarli bo'ladi shuning uchun ushbu maqolada o'z sohamizdagi ya'ni pedagogikadagi yangiliklarga yangi texnologiyalarga biroz to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik mahorataing umumiy asoslarini yoritishda eng muhim tayanch tushuncha "mahorat" atamasi sanaladi.

Mahorat ("mahorat" - mohirlik, ustalik, epchillik) - bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish; biror ish, kasbiy faoliyatni samarali, yuksak darajada bajarish uchun ko'nikma, malakalarning zaruriy yoki muayyan ko'rsatichilarda orttirilishi, ustalik, mohirlikdir.

Pedagogik mahorat 1) pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va bosbqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi;

2) Ta'lim- tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlami samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qöllanib kelinadi. Bundan tashqari u bilan yonma-yon usul, uslub kabi özbekcha muqobillari ham ishlatiladi. Bizning nazarimizda ilmiy doirada xalqaro söz bölgan metodika atamasi qöllangani maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan qarashlarimizda metodika sözidan foydalanamiz.

Metodika tushunchasini örganishdan avval uning negizini tahlil qilib körsak. Metod özi nima?

Metod bu biror maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladigan yöl, usuldir.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — vo-qelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'lyo'riklar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Metodika—pedagogik fanlar, shuningdek, ijtimoiy tizim talab qiladigan, pedagogika fani ko'rsatgan umumiy o'rta va oliy Ta'limning maqsad vazifalariga mos ravishda ishlab chiqiladi.

Ushbu ta'riflar orqali metodika, pedagogik mahorat haqida bilib oldik. Biz metodlar haqida o'rganayotgan ekanmiz interfaol metodlar haqida qisqacha quyida qisqacha ma'lumot bermoqchiman.

Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlami to'ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo'llashda o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga (kashf etishga) nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

Pedagogik mahoratni oshirish metodikani yaxshilash uchun quyida asosiy nuqtalarga e'tibor qaratishi tavsiya etiladi:

❖ Professional rivojlanish: O'z mahoratingizni oshirish uchun pedagogikda rivojlanishni davom ettiring. Yangiliklarni o'rganing, ilmiy tadqiqotlarga qiziqing, konferentsiyalarda, seminarlarda va o'qituvchilar jamiyatlari bilan ishlash imkoniyatlaridan foydalaning.

❖ O'qitish texnikalarini o'rganing: Bir nechta o'qitish texnikalarni o'rganib, ularni o'quvchilarga mos keladigan usullarda qo'llashingiz mumkin. Misol uchun, amaliy mashg'ulotlar, o'yinlar, vizual asboblari, baho sistemalari va boshqalar.

❖ Individual ravishda o'qitish: O'quvchilarning har biri farqli o'rganish stili va talablarga ega bo'lishi mumkin. Buning uchun, har bir o'quvchi bilan aloqani oshirib, ularning xohishlarini, qobiliyatlarini va talablari ni aniqlashingiz kerak. Shuningdek, o'quvchilarga bire bir yordam bera olasiz va ularni shaxsiy ravishda ko'rib chiqish uchun yaratuvchi muhit yaratishingiz mumkin.

❖ O'quvchilarning qatnashishini ko'paytirish: Mashg'ulotlarda o'quvchilarni faol ravishda qatnashishiga imkoniyat berish uchun interaktiv usullar qo'llashingiz kerak. Guruh ishlarida, guruh ishlari va ijtimoiy fikr almashishlar orqali o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik va muloqotni oshirish mumkin.

❖ O'quvchilar bilimlari va talablari haqida ma'lumot to'plash: O'quvchilarning o'zlarining talablarini, bilim darajalari va o'rganish usullarini tushunishingiz muhimdir. Ular bilan muloqotda bo'lib, ularning qanday o'rganishdan zavqlanadiganligini, qaysi usullardan foydalanishlarini va qanday o'quv jarayonlaridan ko'proq foydalanishlarini bilib olishingiz kerak. Bunda, o'quvchilar bilimini sinovdan o'tkazish, anketa va muloqotlar orqali ma'lumot to'plashingiz mumkin.

❖ Innovatsion usullarni o'rganing: Pedagogik metodikada yangiliklarni qabul qilib oling. Innovatsion usullar, interaktiv darsliklar, onlayn o'quv resurslari, o'yinlar va ilmiy tadqiqotlar pedagogik usullarini oshirishga yordam berishi mumkin.

Konferentsiyalarda, seminarlarda va pedagogik jamiyatlar bilan hamkorlikda yangiliklarni o'rganing va ulardan foydalaning.

❖ Birlashtirilgan darsliklarni ishlatish: Birlashtirilgan darsliklar, turli fanlar orasidagi bog'lanishlarni ko'paytirish va o'quvchilarga amaliyotga asoslangan bilim olish imkoniyatini beradi. Darslarda yangi bilimlar va o'quv jihozlari o'quvchilar.

❖ Refleksiya va baholash: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun refleksiya va baholash muhimdir. O'quvchilarga baholar berish va ular bilan birlashib o'qish jarayonini baholash yordamida o'quvchilarning mustaqil o'rganish va shaxsiy rivojlanishlarini oshirishingiz mumkin. O'qituvchilar ham o'z faoliyatlarini baholash orqali o'zlarini yanada rivojlantirishlari mumkin.

❖ Hamkorlik va maslahatlashish: Pedagogik mahoratni oshirish uchun hamkorlik va maslahatlashish muhimdir. Boshqa o'qituvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar va talabalar orasida o'zaro ko'rsatmalardan, tajribalardan, yaxshi amaliyotlardan foydalanishingiz kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan usullardan tavsiyalardan foydalanib ko'rilsa ta'lim sifati o'sishiga va o'qituvchilarimizni pedagogik mahorati oshishiga metodikasi o'sishiga yaxshi yordam beradi degan umiddaman.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ta'lim tizimida o'qituvchilarning pedagogik mahorati metodikasi talabalarni fanga bulgan munosabatini bildiradi. Bizni kelajakda yetuk mutaxassislar kadrlar bilan muammolarga uchramasligimiz uchun o'qituvchilardan o'tayotgan fanini o'quvchilarga yetkazib berishi uchun albatta ulardan mahorat talab etiladi. Pedagogik mahorat o'qituvchilar uchun asosiy qobiliyat va bilimlar to'plamidir. Bu mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilar o'quvchilarning rivojlanishlarini kengaytirish, ularga qiziqish va sevgi bilan o'rganish imkonini berish bilan birga, ularni samarali va yaratuvchanlikka yo'l qo'yishda muvaffaqiyatga olib kelishadi. Pedagogik mahoratni oshirish o'quvchilarning ma'lumot va rivojlanishini ta'minlashda katta muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar o'rganganligimizni amalga

oshirish va Ta'lim jarayonlarini o'zlashtirishga erishishimizga yordam beradi. Pedagogik mahoratni oshirishning shaxsiy rivojlanish va talabalarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga muhim ta'siri bor. Bu esa o'quvchilarning Ta'lim olgan bilim va bilim larini amalda qo'llab-quvvatlaydigan va ijodiylikni rivojlantiruvchi fuqarolar sifatida yashashiga yo'l ochadi. Meni yana bir narsa quvontiradiki ushbu maqolam orqali men Ta'lim sifatini oshirishni o'z sohamdagi o'z fanimdagi bir mavzu orqali yoritishga harakat qildim. Umid qilamanki bu usullardan har bir pedagog o'z faoliyatida amalga tatbiq etib ko'radi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Omonov H.T., Xo'jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" – Toshkent 2009.
2. R. Q. Turniyazov, A. Q. Ajabov "Astofizika astronomiya asoslari"- Samarqand – 2016
3. Jizzax Davlat Pedagogika Insituti- "Umumiy astronomiya"- Zokirov M., Bekmirzayeva X.U. – Toshkent 2020.
4. Tolipov O', Ro'ziyeva D. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"- Toshkent 2019.
5. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"- Toshkent 2006.
6. Andijon Davlat Universiteti Psixologiya kafedrası "Psixologiya fanlarini o'qitish texnologiyasi"- Andijon 2016.

## METHODS OF USING DEVELOPING TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION

**Maxmudova Diyora Akmalovna**

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

[maxmudova\\_diyora@tdpu.uz](mailto:maxmudova_diyora@tdpu.uz)

***Abstract:** the rapid expansion of technology into the worlds of young people has created a new generation which can use computers, mobile devices and other digital technologies as easy as winking. Nevertheless, in the context of early childhood settings there are some influences that may differentiate the technology use behaviors of preschool children which are generally constructed at home or school environment. This study seeks to define the possible influences, effects and praxis of technology use in early childhood settings, and also intends to explore the current research trends about technology use in the field of early childhood education. Data were gathered from several scientific databases.*

***Keywords:** Preschool education, early childhood education, technology use, preschool technologies.*

Technology plays a positive role in children's development and learning. Through the use of technology, teachers have access to more innovative and improved teaching methods that allow them to promote learning and create an active learning environment for children. A new survey examined how teachers use technology in their early childhood classrooms. The researchers found that a majority of teachers integrate technical devices in their everyday teaching but that there is a need for support to use the devices more effectively.



During the preschool years, young children are developing a sense of initiative and creativity. They are curious about the world around them and about learning. They are exploring their ability to create and communicate using a variety of media (crayons, felt-tip markers, paints and other art materials, blocks, dramatic play materials, miniature life figures) and through creative movement, singing, dancing, and using their bodies to represent ideas and experiences. Digital technologies provide one more outlet for them to demonstrate their creativity and learning

With the development and high availability of technology, the number of technology users is increased exponentially. The reports of Ofcom showed that the ownership and the use of touch screen technologies such as smartphones and tablets are rapidly increasing and the age of technology users is decreasing. Children have become technologically literate in early ages. In other words, children are accessing to variety of technologies and internet more at younger ages. For instance, in U.S in 2013, 38% of children at or under age 2 used mobile technological devices whereas 10% of them used in 2011. Similarly, a study showed that in 2014, 83% of the children aged between 2 and 10 used high speed internet, 76% played with game console, 71% used smartphones and 41% accessed educational gaming device. Children aged 5 and under use internet once a week if there is at their home and play games on variety of mobile devices such as laptops, smart phones and tablet PCs frequently.

Most of the parents of children between 4 and 7 years old gave their iPhones to their children and allowed them to play games on this device. The report of European Union in 2013 demonstrates that in worldwide children go online in younger ages. In US, 25% of 3 year old children and 50% of 5 year old children connect internet in daily basis and 70% of 3-4 year old children use internet sometimes in Sweden. In another study conducted by Ofcom showed that in U.K, 28% of the 3 and 4 years old children used tablet PCs at their home and 12% were allowed to access Internet via tablets. Additionally, 14% of their parents believed that their children knew Internet more than they do. The average age of Australian children who use internet first time is under 8.

The touch screen devices offers interaction to the young children since it is very easy to use them compared to computers. Unlike computers which requires mouse or keyboard skills, young children can use this device easily due to its touch screen. According to Radich by using tools that become user-friendly, kids are doing a variety of activities such as playing a game, making a picture, recording a story or taking a photo. Additionally, mobile devices such as smartphones and tablets are more available to the children compared to computers in nearly 50% of which children are forbidden to use. Holloway et al. state that there is an increase in the availability of tablet computers for the young children age 6 and under by citing a report which demonstrates that in Sweden 50% of the 3 and 4 age-year-old children use tablets and in Norway, 23% of the children at 6 and under use them<sup>1</sup>.

In 2011, 38% of the children under eight used mobile devices whereas in 2013 72% used it. This situation also takes the interest of the companies and inspired them to develop special technologies for the young children. They designed technology in order to develop specific skills such as literacy skills of the young children and encourage their parents to buy them in order to develop the skills of their children. As stated by Gutnick et al. point out, educators and media developers state that as prices drop, more families will use these devices. Further, they note that if iTunes is not a market for children, an essential proportion of the pre-eminent 100 educational apps on iTunes involved in children's content. But the ease of their use brings an important question about how and when these technologies should be served to the young children.

This issue poses a modern-day dilemma to the parents since their affordances and availability is increasing at homes of young children. Hence it calls researchers to investigate when and how these technologies should be used in early education context.

The little empirical evidence available suggests that teachers are increasingly incorporating technology and media into the classroom. Vanderloo (2014) conducted

---

<sup>1</sup> Aubrey, C., & Dahl, S. (2014). The confidence and competence in information and communication technologies of practitioners, parents and young children in the early years foundation stage. *Early Years*, 34(1), 94-108.  
Doi:10.1080/09575146.2013.792789

a systematic review of eight international studies that reported daily screen-viewing in early childcare settings. Results showed relatively high levels of daily screen time, with studies of center-based childcare reporting rates of up to 1.3 h of screen time per day. However, this report may significantly underestimate current technology and media use, as many of the included studies focused solely on TV before the rise of mobile devices. A 2015 report found that over half of United States preschool teachers reported using tablets in class at least once a week (Northwestern University, 2015), and in a 2019 report, preschool teachers' access to technology in the classroom was rising, such that, most had access to the internet (89%), computers (81%), and tablets in the classroom (71%; Pila et al., 2019). A 2016 study from New Zealand shows that over 60% of public kindergartens reported using tablets and computers in the classroom at least weekly (Gerritsen et al., 2016).

In sum, technology and media use is increasingly prevalent during the early childhood years, yet little is known about its use in preschool classrooms. The current study is unique in that it goes beyond prevalence to examine the purposes and contexts of preschool classroom technology and media use, as well as the extent to which the characteristics of teachers, classrooms, and programs may be related to technology and media use. Most prior studies have focused solely on prevalence without examining the extent to which teachers use technology and media for instructional purposes and in teacher-supported contexts. It is vital to fill this gap because technology and media use may be either detrimental or beneficial to children's learning, depending on how it is used. Furthermore, many prior studies are from 2015 and earlier, whereas the availability and accessibility of technology has changed drastically in the last 5 years, potentially increasing technology and media use in preschool classrooms and leading to shifts in the characteristics of teachers, classrooms, and programs that may predict use. Thus, the current study addresses three exploratory aims:

1. Establish the frequency, purposes (instructional or non-instructional), and contexts (teacher-supported or not teacher-supported) for which preschool teachers report using technology and media.

2. Identify whether and to what extent preschool teachers' classroom technology and media use can be represented by distinct classes, and
3. Examine demographic and classroom predictors of teachers' technology and media use.

## REFERENCES

1. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. *Spanish Journal of Society and Sustainability*.—Published February, 8, 12-15.
2. Barno, E. (2023). O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(3), 103-105.
3. Махмудова, Д. А. (2023). ПРОБЛЕМЫ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ И РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 143-147.
4. Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, 1(15), 141-147.
5. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.
6. Yakubova, Z. Z. (2023). NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES. *European International Journal of Pedagogics*, 3(01), 51-55.
7. Ким, И. Н. (2022, October). РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 180-183).

8. Ким, И. Н. (2022). СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *Информационные технологии и цифровое образование: приоритетные направления развития и практика реализации* (pp. 25-28).

9. Sadriddinova, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Thematics Journal of Education*, 7(4).

10. Sadriddinova, R. B. (2022, October). SIGNIFICANCE OF DEVELOPING STUDENTS' LEARNING COMPETENCIES IN THE PRACTICE. In *Archive of Conferences* (pp. 35-37).

## O'QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV

**Komilova Aziza Sunatullaevna**

**Pardayev Xumoyun Farhod o'g'li**

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quv tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda shaxsga individual yondoshish ya'ni shaxsning individual psixologik xususiyatlaridan temperament, xarakter, qobiliyat, iqtidor, iste'dod va salohiyatlari, shaxs psixologiyasi, xulq-atvorining yetakchi omillari, kasb-hunarga moyilligini olimlar tomonidan turli komponentlarga ajratilganligi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, individuallik, psixik jarayonlar, individual psixologik xususiyatlar, xarakter, temperament, qobiliyat, iqtidor, iste'dod, salohiyat.

**Аннотация:** В данной статье индивидуальный подход к человеку в эффективной организации образовательного процесса, то есть от индивидуально-психологических особенностей личности, темперамента, характера, способностей, одаренности, таланта, потенциала, и ведущих факторов психологии личности, поведение, склонность к профессии анализируются учеными по-разному, выделяются сведения о разделении на составляющие.

**Ключевые слова:** личность, индивидуальность, психические процессы, индивидуально-психологические особенности, характер, темперамент, способности, талант, потенциал.

**Abstract:** In this article, the individual approach to the person in the effective organization of the educational process, that is, from the individual psychological characteristics of the person, temperament, character, ability, talent, talent, potential, and the leading factors of personal psychology, behavior, inclination to the profession, are analyzed by scientists in different ways. the information about the separation into components is highlighted.

**Key words:** personality, individuality, mental processes, individual psychological characteristics, character, temperament, ability, talent, potential.

Psixologiya fani insonlardagi psixik jarayonlar, individual psixologik xususiyatlarni o'rganishi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Asrlar davomida psixologiya tavsifiy bilimlar sohasi sifatida ham shakllanmoqda. Agar psixologik fikr tarixiga nazar tashlansa, uning qadim o'tmishlarga borib taqalishini e'tirof etish mumkin. Ruh haqidagi g'oyalar qadimdayoq Suqrot, Aflotun, Arastularning falsafiy qarashlarida shakllangan. Birlamchi psixologik qarashlar falsafa fani negizida paydo bo'lgan edi. Buyuk allomalar asarlarida jon va ruh haqidagi qarashlardan ta'sirlangan holda faylasuf olimlar tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hamda inson ruhiyatiga ham e'tibor qaratib, inson psixologiyasini haqli ravishda falsafa negizida shakllangan fandir deyishmoqda. Keyinchalik boshqa fan sohalari, ayniqsa, tibbiy-biologik izlanishlarda inson va uning murakkab tuzilishi, ruhiy hayotiga qiziqish ortib borgan sari sekin-asta psixik jarayonlar ham yaxlit bir tizimi bo'lishi mumkinligi g'oyasi paydo bo'ladi. Qolaversa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson ruhiyati to'g'risidagi psixologik hamda falsafiy qarashlar bilan tabiiy-ilmiy qarashlar o'rtasida tafovutlar chiqqani sari uning alohida fan sifatida shakllanishi zarurati ortib boradi. Eramizdan oldingi V asrlarda buyuk olim Gippokrat individual psixologik xususiyatlardan biri bo'lgan temperamentlar haqidagi ta'limotni yaratadi va bu ta'limot odamlar o'rtasidagi individual farqlarni ilmiy ravishda tushuntirib berishda muhim rol o'ynaydi. Eramizdan oldingi asrlarda psixologik fikrlarni yana qaytadan tabiiy-ilmiy asoslab, uni biologiya va tibbiyot bilan bog'ladi. Arastuning "Jon haqida"gi asari o'sha davridayoq psixologiya maxsus fan sifatida maydonga kela boshlaganligidan dalolat beradi. Psixologiya fan sifatida tan olinib, olimlarning qarashlari shakllanib borgan sari, kechinmalar tabiatini negizidan o'rganish ehtiyoji paydo bo'la boshladi. Bu o'z-o'zidan shaxsning individual xususiyatlarini xisobga olishni taqozo etadi deyish mumkin.

Bizga ma'lumki jamiyat hayotida tinimsiz o'zgarishlar natijasida psixologiyaning bir qancha tarmoqlari yuzaga keldi. Psixologiya fanining muhim sohalaridan biri shaxs psixologiyasidir. Bu tarmoq shaxsning individual xususiyatlari – xarakteri, temperamenti, qobiliyati, xulq-atvorining etakchi omillari, kasb-

hunarga moyilligini o'rganadi. Olimlar shaxs individualligini turli komponentlarga ajratadi. Bu komponentlarini umumlashtirgan holda quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Ijtimoiy holati va roli
2. «Men konsepsiya» va dunyoqarash
3. Munosabatlar va qadriyatlar ierarxiyasi
4. Aqliy va amaliy qobiliyatlari
5. Xarakter
6. Temperament
7. Yoshi, jinsi

Shaxs individualligi deganda, nima tushuniladi? Individuallik - shaxsning sub'ektiv va ijtimoiy mohiyatini ifodalashdagi o'ziga xos xususiyat bo'lib - temperament, xarakter, qobiliyat, iste'dod va geniylik sifatlariga bo'linadi.

Bola psixik taraqqiyoti tashqi sharoitlarga tashqi ta'surotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishning bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar xamda vaziyatlar xamisha odamning xayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. Shu bilan birga odam faol mavjudot sifatida o'zi xam ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni tevarak atrofidagi muhitdan ajralmagan xolda olib boriladi. O'z-o'zini tarbiyalash muhit bilan moslashgan xolda va muhit bilan aktiv o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Muayyan jamiyatda asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda shaxsning fiziologik, pedagogik-psixologik va jismoniy rivojlanishiga ko'ra yondashish tajribasi shakllangan.

XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya fanida shaxs iqtidori, qobiliyatlilik darajasi, qobiliyatni maqsadli rivojlantirish masalalarini tadqiq etishga kirishildi. N.S.Leytes, M.Karne, V.S.Blum, B.Klark, J.Uitmor, A.Sh.Shvedel, R.S.Stounberner, L.Termen kabilar tomonidan qobiliyatlilik va uning darajalarini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi, shuningdek, qobiliyatli shaxslarning o'ziga xos pedagogik-psixologik sifatlarining tadqiq etilishi hamda ular bilan munosabatni



to'g'ri tashkil etish yuzasidan tavsiyalarning ilgari surilishi nafaqat soha rivojini ta'minlab qolmay balki, qobiliyatli shaxslarning "cheksiz imkoniyatlari"dan samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatib berdi.

J.Uitmor quyidagi omillar bolalarda alohida qobiliyatning namoyon bo'lishiga zamin yaratishini asoslab berdi:

1. Mukammallikka intilish (perfeksionizm). Qobiliyatli bolalar uchun kamolotga intilishning ichki ehtiyojiga egalik xosdir. Ular yuqori natijalarni qo'lga kiritmagunlaricha tinchimaydilar. Buning ilk ko'rinishi juda yoshlikdan ko'zga tashlanadi.

2. Qoniqmaslik tuyg'usiga egalik. O'z-o'ziga bunday munosabatda bo'lish qobiliyatlilar nima bilan shug'ullansa ularning barchasida mukammal bo'lishga intiluvchi bolalarga xos xususiyat sanaladi. Ular shaxsiy yutuqlariga tanqidiy yondashadilar, ko'p holatlarda ulardan qoniqmaydilar, bundan o'z-o'zini noto'g'ri va past baholash hissi yuzaga keladi.

3. Noreal (amalga oshish imkoniyati kam bo'lgan) maqsadlarga egalik. Qobiliyatli bolalar odatda o'z oldilariga yuksak maqsadlarni qo'yadilar. Qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatiga ega bo'lmasalar, ular tashvishlana boshlaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, mukammallikka intilish yuksak yutuqlarga erishish imkonini beruvchi kuchdir.

4. O'ta sezgirlik. Qobiliyatli bolalar eshitish imkoniyatining yuqoriligi tufayli ular munosabat va aloqalarni yaxshi tushunadilar, ular nafaqat o'zlariga, shu bilan birga atrofdagilarga nisbatan ham tanqidiy munosabatda bo'ladilar. Qobiliyatli bolalar juda ta'sirchan bo'lib, ular atrofdagilardan o'zlariga nisbatan bildirilayotgan yoqimsiz so'z yoki so'zsiz harakatlarning paydo bo'lishi bilan oq qabul qiladilar. Doimiy ravishda turli ko'rinishdagi salbiy ta'sirlarga javob beraverish oqibatida bunday bolalar ko'p hollarda giperfaol va tez chalg'iydigan bo'lib qoladilar.

5. Kattalarning e'tiborlariga ehtiyoj sezish. Tabiatan qiziquvchanliklari va bilishga bo'lgan intilish ko'p hollarda o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa katta yoshli

kishilarning e'tiborlari o'zlarigagina qaratilishini xohlaydilar. Bu boshqa bolalar bilan munosabatlarda bunday istakni keskinlashtiruvchi ziddiyatni keltirib chiqaradi.

6. Sabrsizlik. Qobiliyatli bolalar ko'p holatlarda aqliy jihatdan o'zlariga nisbatan past salohiyatga ega bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo'ladilar. Shu sababli ular toqatsizlik va sabrsizlikni ifodalovchi tashqi tanbehlariga duch keladilar. [2]

Bugungi kun barkamol shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda, o'quvchilarni komil inson qilib tarbiyalashda psixologlar va pedagoglar xamkorligida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ular o'quvchilarga tarbiya berishning saviyasini ko'tarishga yordam berishi mumkin bo'lgan psixologik muammolar echimini topish yuzasidan samarali yutuqlarga erishilmoqda. Psixologlarimizning fikrlariga tayangan xolda aytish mumkinki, bugungi kunda ta'lim tarbiyaning muvaffaqiyati o'quv materialining mazmunigagina, ta'lim-tarbiyaning metodlarigagina bog'liq emas. Balki xar bir o'quvchining faqatgina o'ziga xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlarini ya'ni temperament, xarakter va qobiliyatlarini xisobga olish va shu asosida ularga topshiriq va vazifalar berib borish lozim.

O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishda ular uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim omillardan biri sanaladi. 1980 yillarda amerikalik olimlar M.Karne, A.Shvedel va S.Minnemayerlar o'quvchilar qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarning inobatga olinishi muhim ekanligini alohida qayd etib o'tganlar:

1. Har bir bola takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlarga ega.
2. Qobiliyatli bolalar o'zlariga nisbatan nihoyatda tanqidiy yondashadilar va ko'p hollarda u qadar ijobiy bo'lmagan "Men" obraziga egaliklari bilan ajralib turadilar.
3. Oila qobiliyatli bolalarga ta'lim berishda yetakchi o'rinni egallashi lozim.
4. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dasturda ularning qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq keluvchi turli-tuman o'quv materiallari o'rin olishi kerak.
5. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dastur uning har tomonlama – harakat, hissiy, shuningdek, muloqot malakalarini shakllantirishdagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashi hamda ularni rivojlantirishga yordam bera olishi zarur.

6. Qobiliyatli bolalar “bilimlarni o‘rtacha o‘zlashtiruvchi” o‘quvchilar bilan bir guruh (sinf)da o‘qitilganda xuddi o‘zlari singari qobiliyatli bolalar bilan muloqot qila olish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari kerak.

7. Bu kabi dasturlarni amalga oshirishga maxsus tayyorgarlik va qobiliyatli bolalar bilan ishlash tajribasiga ega mutaxassisning rahbarlik qilishi yuqori natijalarni qo‘lga kiritishga imkon beradi.

8. Qobiliyatli bolalar uchun namunaviy dasturlar o‘quvchilarni bir ta’lim muassasasida uzluksiz o‘qitishni talab etadi.

9. Ota-onalar va mutaxassislar uchun bola oldiga qo‘yiluvchi maqsadlar va ularni amalga oshirish yo‘llarini aniqlashga bo‘lgan munosabatlarda hamkorlik qilish muhim sanaladi.

10. Dasturning ajralmas qismi bola muvaffaqiyatlarini baholovchi tizim bo‘lishi lozim.

11. Dastur o‘zida ota-onalar ham muhim rol o‘ynaydigan qobiliyatlilikning namoyon bo‘lishini ta’minlovchi yaxshi tashkillashtirilgan, samarali va doimiy harakatdagi tizimni qamrab olishi lozim.

12. Dastur bolaning rivojlanishini ta’minlovchi hamda bir darajadan ikkinchi darajaga samarali va izchil o‘tishi uchun zarur imkoniyatga ega bo‘lishi zarur.

13. Dastur maqsadlariga erishishga bo‘lgan intilishni rivojlantira olishi kerak.

14. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – dasturning muhim maqsadlaridan biri sanaladi.

15. Qobiliyatli rahbarlarni iqtidorli bolalarga ta’lim berishga jalb etishning zaruriy yo‘llarini topish maqsadga muvofiqdir.[3]

Manbalarda “qobiliyat”, “iqtidor”, “iste’dod” va “salohiyat” tushunchalarining garchi yagona negizga ega bo‘lsa-da, biroq turli darajadagi xususiyatlarni ifodalashi alohida ta’kidlab o‘tiladi. Jumladan, qobiliyat “shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning ishni muvaffaqiyatli bajarishidagi o‘ziga xos imkoniyatlarni ifodalovchi ruhiy xususiyatlar”, “shaxsning ma’lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual pedagogik-psixologik xususiyatlar” sifatida e’tirof etilsa, “insonning o‘z xatti-harakatlariga nisbatan sub’ektiv munosabati” esa iqtidor deya talqin etiladi.

Mavjud manbalarda shaxsning o‘zgalardan farqli xususiyatlarini anglatishga xizmat qiluvchi individual xususiyatlarga egalik turli darajada bo‘lishiga va darajasiga ko‘ra shaxsga muayyan nisbatlar berilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Shaxsning temperamenti deganda biz ularning tabiiy va tug'ma xususiyatlarini tushunamiz. Ta'lim tarbiya jarayonida biz o'quvchilarning aynan temperament tiplarini yaxshi bilgan xolda va xisobga olgan xolda ular bilan muomala munosabatga kirishishimiz muhimdir. Faoliyat jarayonida xar bir o'quvchida temperamentning qaysidir tipi namoyon buladi va bu narsa o'quvchining muvaffaqiyatiga yordam beradi. SHunday ekan xar bir narsani o'quvchilarga etkazishda, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallashlarida ularning temperamentining fan o'qituvchisi tomonidan xisobga olinishi ta'lim tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi va bolaning muvaffaqiyatga erishishiga yaqindan yordam beradi. O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakillanib, rivojlanib kamolga etish yoshlarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarni bevosita ta'sirini xamda ahamiyatini tushunishimiz mumkin. Xar bir temperament o'smirlar o'qish faoliyatida va o'quvchilar orasida o'zlarini tipiga xos tarzda nomoyon etib boradilar. Bu narsaga befarq qarash va xisobga olmaslik o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarning buzilishiga, bir-birini tushunmaslikka va ta'lim tarbiya jarayonida orqada qolishga sabab bo'ladi. SHuni xisobga olgan xolda aytish mumkinki biz melanxolik, xolerik, flegmatik, sangvinik tipdagi o'quvchilarning aynan o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda, yuqoridagilarga amal qilgan xolda muomala o'rnatish qobiliyatiga ega bo'lishimiz va amal qilishimiz lozim.

Xulosa chiqarish mumkinki, bir xil tashqi sharoit, bir xil muhit, turli bolalarga, o'smirlarga, yigit va qizlarga turlicha ta'sir ko'rsatish mumkin. Maktab o'quvchisining psixik taraqqiyoti qonunlari shuning uchun xam murakkabki, psixik taraqqiyotning o'zi murakkab va qarama-qarshi o'zgarishlardan iborat jarayondir. Psixik taraqqiyotning faktorlari, ta'lim va tarbiya sharoitlari xilma-xil va ko'p qirralidir. Biz yuqorida aytib o'tilganidek, bu faktor va sharoitlar turli bolalarga turlicha ta'sir qilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. O‘quvchilarning qiziqish va moyilliklari diagnostikasi /Metodik tavsiyanomalar. – T.: RO‘MM, 2001.
3. Shaxsni o‘rganish metodikalari /Amaliyotchi psixologlar uchun qo‘llanma. – T.: A.Avloniy nomli PXMOMI, 2000.
4. Sunatullaevna, K. A., & Quدراتovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.
5. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
6. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
7. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
8. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 419-422.
9. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 87-89.

**O‘ZBEKISTON VA QIRG‘IZISTONNING ANDIJON (KAMPIROBOD) SUV  
OMBORINI BIRGALIKDA BOSHQARUVI BORASIDAGI YANGI  
KELISHUVINING O‘ZBEKISTON IRRIGATSIYA TIZIMIGA TA’SIRI**

**Xudoyberdiyev Xumoyunbek Xabibulla o‘g‘li**

[xumoyunxudoyberdiyev80@gmail.com](mailto:xumoyunxudoyberdiyev80@gmail.com)

**Ataboyev Javohir Sarvar o‘g‘li**

“Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari  
Instituti” Milliy Tadqiqot Universiteti 2-bosqich talabalari

[javoxirbekjavoxirbek92@gmail.com](mailto:javoxirbekjavoxirbek92@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada bugungi kunda yurtimiz hayotida suvdan foydalanish bo‘yicha muhim diplomatik kelishuvlardan biri bo‘lgan O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi Andijon (Kampiropod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to‘g‘risidagi bitimining ijtimoiy va iqtisodiy ro‘lini qiyosiy taxlili asosida yoritilgan. Kampiropod suv omboridagi suv resurslarini birgalikda boshqarish, Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi bir qancha chegaraviy kelishmovchiliklarni hal qilishdagi o‘rni batafsil yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** suv ombori, suv taqsimoti, transc chegaraviy daryolar, suv oqimi, suv diplomatiyasi, gidrotexnik inshoot, delimitatsiya, demarkatsiya.*

**THE EFFECT OF THE NEW AGREEMENT ON THE JOINT  
MANAGEMENT OF THE ANDIJAN (KAMPIRABAD) WATER  
RESERVOIR OF UZBEKISTAN AND KYRGYZSTAN ON THE  
UZBEKISTAN IRRIGATION SYSTEM**

### ABSTRACT

*In this article, the social and economic role of the agreement on the joint management of water resources of the Andijan (Kampirabad) reservoir between Uzbekistan and Kyrgyzstan, which is one of the important diplomatic agreements on the use of water in the life of our country today. explained on the basis of comparative analysis. The joint management of water resources in the Kampirabad reservoir and its role in resolving several border disputes between Kyrgyzstan and Uzbekistan are covered in detail.*

**Key words:** *reservoir, water distribution, transboundary rivers, water flow, water diplomacy, hydrotechnical structure, delimitation, demarcation.*

